

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI XALQ TA'LIMI VAZIRLIGI

NAVOIY DAVLAT PEDAGOGIKA INSTITUTI

“TABIIY FANLAR” FAKULTETI

“GEOGRAFIYA O'QITISH METODIKASI” KAFEDRASI

**“GEOGRAFIYA DARSLARIDA GEOGRAFIK O'YINLARDAN
FOYDALANISH”**

Bitiruv malakaviy ishi

Bajardi: “Geografiya o'qitish metodikasi”

ta'lim yo'nalishi IV- kurs talabasi

Axmedov Rustam O'tkir o'g'li

Ilmiy rahbar: dotsent B.H.Kalonov

Bitiruv malakaviy ishi kafedradan dastlabki himoyadan o'tdi.

Kafedraning _____ sonli bayyonnomasi « _____ » _____ 2016.

Navoiy-2016

Mundarija

Kirish.....	3-5
<i>I.bob. Geografiya darsida geografik o'yinlardan foydalanishning maqsadi va vazifalari</i>	
1.1. Geografik o'yinlardan foydalanish uslublari.....	6-18
1.2. Geografik o'yin turlari.....	18-34
<i>II.bob. Dars va darsdan tashqari ishlarda geografik o'yinlardan foydalanish</i>	
2.1. Darsda geografik o'yinlarni qo'llash.....	35-47
2.2. Darsdan tashqari ishlarda o'yinlardan foydalanish.....	47-57.
Xulosa.....	58-59
Adabiyotlar ro'yxati.....	60-62

Kirish

Bitiruv malakaviy ishning dolzarbligi. Mustaqillik yillarida ta'lim sohasida tub o'zgarishlar yuz berdi. Ta'limni zamon bilan bog'lashni samarali usullaridan biri ta'limda erishilayotgan yutuqlarni o'quv jarayoniga singdirishdir. «Ta'lim to'g'risida»gi Qonun, «Kadrlar tayyorlash milliy Dasturi» asosida yuqori malakali kadrlar tayyorlash uchun yoshlarning bilim olish darajasini yaxshilashda geografiya darslarida qo'llaniladigan geografik o'yinlar muhim ahamiyat kasb etadi. Geografiya darslarida geografik o'yinlardan foydalanish bugungi kun geografiyasining eng dolzarb masalalaridan biri hisoblanadi.

Bitiruv malakaviy ishning maqsadi va vazifalari. Bitiruv malakaviy ishimning asosiy maqsadi geografiya darslarida geografik o'yinlardan foydalanishning mazmun va mohiyatini tahlil qilish va sinfdan tashqari ishlarda geografik o'yinlarga doir tavsiyalar ishlab chiqish.

Bitiruv malakaviy ishimning maqsadidan kelib chiqqan holda quyidagi **vazifalarni** amalga oshirishni taqozo etadi:

1. Geografiya darslarida geografik o'yinlardan foydalanish uslublarini aniqlash;
2. Geografik o'yin turlarini ishlab chiqish;
3. Geografiya darslarida geografik o'yinlarni qo'llashga doir tavsiyalar berish;
4. Sinfdan tashqari ishlarda geografik o'yinlardan foydalanishga oid tadbir ishlanmalarini tayyorlash.

Bitiruv malakaviy ishning ob'yekti . Bitiruv malakaviy ishimning ob'yekti sifatida Narpay tumanidagi 23-sonli, Navoiy shahridagi 17-umumiy o'rta ta'lim maktablarida olib borilayotgan geografiya darslarini kuzatish va ularning metodlarini tahlil qilish asosida o'rganish.

Bitiruv malakaviy ishning nazariy va uslubiy asoslari - Bitiruv malakaviy ishimning nazariy va uslubiy asoslari sifatida Prezidentimizning asarlari, ma'ruzalari, qonunlari va qarorlari, farmonlari ishning mazmunini ochishga

yo'naltirilgan ma'lumotlar hamda mavzuga ta'luqli adabiyotlardan, Internet saytlaridan foydalanildi.

Bitiruv malakaviy ishning amaliy va ilmiy ahamiyati. Bitiruv malakaviy ishida Davlat ta'lim standartlari asosida takomillashtirilgan o'quv dasturlariga mos geografiya darslarini tashkil qilish uchun geografik o'yinlardan foydalanib, sinflar kesimida o'yin texnologiyalarini ishlab chiqish bilan izohlanadi. Bitiruv malakaviy ishda berilgan ilmiy xulosa, taklif, tavsiya, dars va tadbir ishlanmalaridan geografiya darslarida foydalanish mumkin.

Bitiruv malakaviy ishning tarkibi va hajmi - Kirish, asosiy qism, ikki bob, xulosa, foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati va ilovalardan iborat bo'lib, o'yin texnologiyalari 59 bet hajmda yozildi, elektron variantlar slaydolar tayyorlandi.

Mustaqil O'zbekiston Respublikasining ta'lim tizimidagi o'zgarishlar umumiy o'rta ta'lim maktablari oldiga muhim vazifalarni qo'ymoqda. Bu vazifalar yoshlarni har tomonlama barkamol, ma'naviy yetuk, mustaqil fikrli, milliy merosimizni qadrlaydigan, ilmiy ijodkor, nozik didli qilib tarbiyalashni o'qituvchilardan tinmay ijodiy izlanishlarni, fidoiylilik ko'rsatishni talab etmoqda.

Ushbu buyuk vazifalarni amalga oshirish yo'lida barcha fanlar qatori geografiyaning ham o'rni kattadir. Chunki, geografiya yer yuzi tabiati, aholisi va uning xo'jalik faoliyati haqidagi fandir. Bugungi kunga kelib, geografiyani takomillashtirishga yanada katta e'tibor bilan qaralmoqda.

Ta'lim sohasida olib borilayotgan islohotlarning tub mohiyati ta'lim mazmunini va shaklini takomillashtirishga qaratilgan. Fan-texnika taraqqiyoti jamiyatimizning demokratlashuvi axborot miqyosining oshib borishi kabi omillar bolalarning shaxsiy xususiyatlariga jumladan, idrok eta olish, tasavvur va tafakkurlash aqliy qobiliyatining rivojlanishiga olib keladi. Bolalarning olamni bilishga bo'lgan ehtiyoji avvalgi yillarga nisbatan keskin oshganligi hech kimga sir emas. Biz kimni tarbiyalashimiz kerak degan savol, zamonaviy pedagogika, didaktika fanlarini o'qitish metodikalarining bosh masalasiga aylandi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Islom Karimovning «Tarixiy xotirasiz – kelajak yo'q» asarida komil inson tushunchasiga aniq ta'rif keltirilgan: «Komil inson deganda biz eng avvalo, ongi yuksak, mustaqil fikrlay oladigan, o'z xulq-atvori bilan o'zgalarga ibrat bo'ladigan bilimli, ma'rifatli kishilarni tushunamiz».

Ta'lim tizimi va maktab oldidagi maqsad qilib, ya'ni komil insonni tarbiyalash, voyaga yetkazish qo'yildi. Mamlakatimiz yoshlarini XXI asr talablarida to'liq javob beradigan har tomonlama rivojlangan shaxslar etib voyaga yetkazish uchun zarur shart-sharoitlar va imkoniyatlarni yaratish bo'yicha keng ko'lamli aniq yo'naltirilgan chora-tadbirlarni amalga oshirish maqsadida, shuningdek, O'zbekiston Respublikasida 2016-yilni «Sog'lom ona va sog'lom bola yili» deb e'lon qilinishi munosabati bilan tayyorlanayotgan mutaxassislarga real iqtisodiy tarmoqlari va sohalaridagi mavjud talabga alohida e'tibor qaratilgan holda o'sib kelayotgan yosh avlodni ta'lim-tarbiya berish sohasida eski an'anaga kirib qolgan tarbiyaviy usullar vositasida emas, balki zamonaviy yangi dars usullari vositasida amalga oshirish shart. Ta'lim standartlari asosida takomillashtirilgan o'quv dasturlariga mos noan'anaviy darslar hamda interfaol usullarning mohiyati darslarda interfaol muloqotni tashkil etish va rivojlantirish bugungi zamon talablaridan biri ekanligi ilmiy asoslanadi.

I.bob. Geografiya darsida geografik o'yinlardan foydalanishning maqsadi va vazifalari

1.1. Geografik o'yinlardan foydalanish uslublari

Dars – ta'limning asosiy shaklidir. Darsni mazmunan va shaklan takomillashtirish, bu didaktikaning bosh masalalaridan biri hisoblanadi. Faqatgina darsda emas, darsdan tashqari, ya'ni sinfdan tashqari ishlarda noan'anaviy interfaol usullarni qo'llab sinfdan tashqari ishlarni tashkil etish va o'tkazish, uni yuqori pog'onaga ko'tarish o'quvchilarda shu fanni o'rganishga bo'lgan havaslarini orttirish lozim.

Geografiya darslarini va sinfdan tashqari ishlarni hayotga tadbiq etish, ularni qiziqarli va ijodiy tashkil etish bosh masaladir. Darsda o'yinlardan foydalanish muhim o'rin egallaydi. Shu o'rinda geografik topishmoqlarni darslarga olib kirish ko'zlangan maqsadga erishishda benihoyat katta yordam beradi. Sababi, topishmoqlar katta so'z o'yini asosida vujudga keladi. Bu qadimiy geografik o'yin ham katta badiiy mahoratni va topqirlikni talab etadi. Topishmoqlar xalq ijodiga obrazli so'zga muhabbat uyg'otadi. Bolalarga estetik zavq bag'ishlab, ularni she'riyat dunyosiga olib kiradi. San'atning o'ziga xos bo'lmish bu she'rlar o'sib kelayotgan avlodning ma'naviy ehtiyojlariga ozuqa bo'ladi. Ezgulikka chorlab, inson uchun eng aziz bo'lgan ona tiliga, tug'ilgan yurtiga muhabbat uyg'otadi. Shuningdek, topishmoqlar darslarda olingan bilimlarni mustahkamlashga, fikrlashga o'rgatib, fanga qiziqishini orttiradi.

«**Geografik topishmoqlar**» asosida tashkil etilgan dars o'quvchilar ongini, tafakkur qobiliyatini o'stirishga xizmat qiladi. Sababi, o'quvchi har bir topishmoqqa mos javobni topishdan oldin mazkur jumboqqa taaluqli o'zi bilan barcha ma'lumotlarni esga olishi, geografik kartalarni tasavvur qilishi, materiklar, davlatlar tabiatidagi o'ziga xos xususiyatlarni esda saqlash qobiliyatiga ega bo'lishi

lozim. Topishmoqni hozirjavoblik bilan topgan o'quvchi o'z bilimiga ishonch hislarini shakllantiradi, javob esa keyingi egallanajak bilimlariga kuch baxshida etadi. Bunda o'quvchini fikrlashga, o'qituvchining har bir so'ziga e'tibor berishga, o'z fikrini ilmiy asoslab bayon etishga o'rgatishdan iborat.

«Geografik topishmoqlar» darsning boshlanishida o'quvchi diqqatini jalb etish va o'tgan mavzular bo'yicha bilimini sinashga dars so'ngida esa yangi materialni qay darajada qabul qilganligini bilish va o'quvchilarga ijodiy dam berish maqsadida foydalaniladi.

«**Geografik suhbatlar**» darsda texnika vositalaridan foydalanish vaqtida magnit tasmasiga yozib olingan har xil mavzuga xos suhbatlarni o'quvchilarga eshittirib, so'ng mavzu bo'yicha suhbatdan olingan ma'lumotlarni tashkil etishga qaratilgan. Bundan tashqari bu suhbatlardan kichik sahna ko'rinishlari tashkil etishda foydalanish mumkin.

«**Geografik tavsifda xato bormi?**» mavzusidan yangi dars tushuntirilgandan so'ng o'quvchining qay darajada tushuncha olganligini bilish maqsadida o'qituvchi tomonidan tavsif bayon etiladi va o'quvchilardan xatolarni topish talab etiladi. Bu tavsiflar o'quvchilarni test savollarini yechishlariga zamin yaratadi.

«**Test topshiriqlari**» o'quvchilarni oraliq va yakuniy nazoratlarida o'quv jarayonida olingan bilim va ko'nikmalarini baholashda yordam beradi.

Topishmoqlar o'zbek va jahon xalqlarining qadimgi xalq og'zaki ijodlaridan biri hisoblanadi. Ulardan asosan, tabiatning turli hodisalari, jismlari, ishora orqali juda aniq tasvirlanadi. Bu topishmoqlar o'z o'rnida barchani qiziqtiradi va topqirlikka undaydi. Topishmoqlardan darsda samarali foydalanish o'quvchilarni fanga bo'lgan qiziqishini zukko va fikrlash tezligini, topqirligini oshirishga xizmat qiladi. Dars jarayonida ruhiy charchashni oldini oladi. O'qituvchiga esa o'quvchilarni ichki dunyosini o'rganishga, ularni individual xususiyatlarini aniqlashga yordam beradi.

Geografik atama, hodisa, joy nomlari va boshqalarni topishmoq asosida bayon etilishi o'quvchilarni unga mos javobni topish uchun bilgan barcha ma'lumotlarni eslashga, geografik kartalarni tasavvur qilish, materiklar, davlatlar rayonlari bo'yicha o'ziga xos xususiyatlarni yodda saqlashga o'rgatadi. Bunday topishmoqlarga misol keltirsak:

To'rt tomoning aniqlab berur,
Darajada joylar aks etar.
Osmonda, suvda, o'rmonda,
Sayohating chog'i asqotar. *(Kompas)*

Unga o'simliklar yuzini burar,
Qumursqalar inin og'zin qurar,
«Avstraliya» - so'zi unga taqalar,
Bu tomonning nomi qanday atalar? *(Janub)*

Yer yuzida shunday nuqta bor,
Kecha-kunduz farqlanmas unda.
Yulduz ham so'nmaydi zinhor,
Charaqlaydi kunda va tunda. *(Shimoliy qutb)*

Xaritamas, miqyosi bor,
Unda joyning rejasi bor.
Aniqrog'i globusdan,
Belgilarning o'z o'rni bor. *(Joy plani)*

Shu kabi topishmoqlar tabiiy geografiya kursida darslarni o'tishda foydalanish maqsadga muvofiq bo'ladi. Har bir topishmoqni o'tiladigan dars mavzusiga moslab o'tilsa, dars yanada samaraliroq va qiziqarliroq bo'ladi. Deylik, VI-sinf materiklar okeanlar kursida biror-bir

materikning hayvonot olamini, tabiat zonalarini o'tganimizda topishmoq asosida darsni boshlaymiz.

Bunday topishmoqlarga:

U dunyoda eng katta ummon,
Tinchligiga bor erur gumon. *(Tinch okeani)*

U qit'aga o'xshaydi,
Orollarni qo'shmaydi. *(Materik)*

Bir o'zanli yo'l bo'lur,
Oqib-oqib ko'l bo'lur. *(Daryo)*

Ulkan xaltali hayvon,
Qayerni qilgan makon? *(Avstraliya)*

Shu kabi topishmoqlardan darsda foydalanib mavzular yoritilsa, bolalarni topqirlik, zukkolik, chaqqonlik va ularni mantiqan o'ylab so'ng so'ylashga o'rgatadi. Bu kabi topishmoqlar mavzuni yaxshi tushuntiribgina qolmasdan, geografiyani boshqa sirlarini ham bilib olishga yordam beradi. Shu kabi topishmoqlar o'quvchilarni topqirlikka, chaqqonlikka, ziyraklikka undaydi va xotira tezligini sinaydi. Bundan tashqari VII va VIII sinf kurslarida hamda IX sinf kurslarida ham geografiya darslarida geografik topishmoqlardan foydalanib darsni tashkil qilish, musobaqalar uyushtirish ham katta samara beradi. Topishmoqlar o'quvchilarga milliy qadriyatlarga, Vatanga, tabiatga, geografiyaga bo'lgan mehrini, qiziqishini oshiradi. Shu bilan bir qatorda, zukkolikka, hozirjavoblikka o'rgatadi.

Geografik suhbatlar. Insoniyat yaratilibdiki, bir-biri bilan muloqot qilish uchun suhbatga kirishadi. Bu suhbatlardan har bir inson o'ziga kerakli ma'lumotni oladi. Quyida berilayotgan «Geografik suhbatlar» o'quvchilarni geografiya fani

bo'yicha qiziqarli mavzularda suhbatlashishga chorlaydi. Bu suhbatlardan qaysi o'quvchi fan to'g'risida chuqur ma'lumotga ega ekanligi yaqqol ko'rinadi. Suhbatlarni o'z o'rniga kerakli mavzularga bog'lab qo'llanilsa, geografik bilimlardan qiziqarli suhbatlar vaqtida foydalanishga o'rgatadi. Bu suhbatlarni nutqi ravon o'quvchilar yordamida magnit tasmasiga tushirilib, dars jarayonida foydalanilsa maqsadga muvofiq bo'ladi. Yana bu suhbatlardan sahna ko'rinishlari tarzida foydalanilsa o'quvchilarga u yoki bu mavzuni chuqurroq egallashda yordam beradi. Geografik suhbatlar quyidagicha bo'lishi mumkin:

Ikki o'rtoq suhbat. - Do'stim, ufqni asosan to'rt tomoni bor, shundaymi?

- Shunday.

- Qani aytingchi, bu tomonlarni qanday ko'rsatkichlarga qarab aniqlash mumkin?

- Agar gnomon kompas asboblari bo'lsa, ular yordamida, bu asboblarni bo'lmagan holda Quyosh va yulduzlarga qarab, shuningdek, mahalliy belgilarga ham tayanish mumkin. Bunda narsalarning soyasiga, daraxtlar tanasidagi yo'sinlarga, hatto chumoli inlariga e'tibor bilan qarashga to'g'ri keladi.

- Kungaboqar va shu kabi yorug' sevar o'simliklarga qarab ham aniqlash mumkinmi?

- Albatta, kungaboqar ertalab Sharqqa, tushda Janubga, kechqurun G'arbga va yarim tunda Shimolga qaragan bo'ladi. Bu suhbatlardan geografiyaning boshlang'ich kursida ufq tomonlarini o'rganishda foydalanilsa maqsadga muvofiq bo'ladi. Bunda o'quvchilarni tomonlarni har xil vaziyatda aniqlay olishni o'rgatadi. Hatto, kungaboqar o'simliklarini kuzatadi. Bunday suhbatlar bolalarni qiziquvchanlikka, ijodkorlikka, izlanuvchanlikka undaydi.

Tabiat qo'ynidagi suhbatlar. - Bugun tabiat o'zgacha bir tusga kirdimi?

- Qushlar, hasharotlar, hatto chumolilar ham serharakat bo'lib qolishdi.

- Ha, buni qarang, qushlar yer bag'irlab, tuproq titib, go'yo yuvinayotganga o'xshaydi. Biroq, havo haddan ziyod qizib ketdi.

- Ha, bugungi kun har kungidan juda ham issiq. Ertangi ob-havo qanday bo'larkan? - Menimcha yomg'ir yog'sa kerak. Bu kabi suhbatni ob-havo, iqlim mavzularini o'tganimizda qo'llash mumkin.

Joy planini olayotgan o'quvchilar suhbatidan:

Ra'no: - Anvar, bilasizmi, men tuzayotgan planim uchun bir bo'lingan ming (1:1000) sonli masshtabni tanladim. Masofani qog'ozga tushirsam, rejadagi bir santimetr masofa joyi qanchaga teng bo'ladi.

Anvar: - Bu joyda osonku, bir santimetrda o'n metr masofa aks ettirilgan. Demak, plandagi bir santimetr masofa joyda o'n metrga teng.

Ra'no: - Yana bir savolimga javob bering, bog' va o'rmon bir-biriga juda o'xshab ketadi. Ularni planda qanday tasvirlash mumkin?

Anvar: - Har ikkisi yumaloq shakllar bilan tasvirlanadi. Farqi shuki, o'rmonlarni tasvirlashda bu doirachalar tartibsiz joylashtiriladi.

Bu guruhdagi suhbatlar mavzuni geografik joy planlarini olishda, dala amaliyotida o'quvchilarga qo'yib berilsa juda maqsadga muvofiq bo'ladi. Bundan tashqari geografik suhbatlardan yuqori sinf kurslarida ham foydalanish mumkin. Deylik, VII sinf kursida darsimizda Farg'ona vodiysi mavzusida olaylik.

Mehmonlar davrasidagi suhbatlardan foydalansak:

- Xush kelibsiz, bizning Farg'ona vodiysiga.

- Xush vaqt bo'ling.

-Sayohatingizdan mamnun bo'lasiz, degan umiddamiz. Bizning Farg'ona vodiysi O'zbekiston Respublikasining eng Sharqiy qismida joylashgan bo'lib, uning atrofi mana ko'rib turganingizdek, tog' bilan o'ralgan. Tabiati go'zal va maftunkor bo'lganligi uchun «O'zbekiston jannati» deb ataladi.

- Vodiy o'z ichiga qaysi viloyatlarni olgan?

-Namangan, Andijon va Farg'ona viloyatlari joylashgan. Siz hozir olmalari bilan mashhur Namangan viloyatida turibsiz.

- Ko'rinib turgan huv anavi tog'larning nomi nima ?

- U Chotqol tog' tizmalaridir.

-Farg'ona vodiysi O'zbekistonning boshqa o'lkalaridan asosan qanday xususiyatlari bilan farqlanib turadi ?

-To'rt tomonidan tog' bilan o'ralganligi uchun yog'in bir necha kun muttasil yog'adi. Kuchli shamollar ko'p esadi. Foydali qazilmalarga boy, zilzilalar bo'lib turadi.

- Suhbatingiz uchun rahmat.

Bu suhbatdan so'ng o'quvchilarga: Chotqol tog'i Farg'ona vodiysining qaysi tomonidan o'rab turadi?, Vodiya qanday nomdagi shamollar esadi? kabi savollardan o'quvchilarni yanada kengroq vodiya haqida tushuncha oladi.

Darsdagi suhbatlar:

O'quvchi: - Ustoz aytingchi, Orol dengizi nima uchun qurib qolyapti?

O'qituvchi: - Orolga quyiladigan daryolar va ularning qismlaridan qishloq xo'jaligida yerlarni sug'orish uchun oqilona foydalanmaslik dengizimizni qurishiga sabab bo'lmoqda.

O'quvchi: - Orol suvi sathini ma'lum yuzada saqlab turish mumkinmi?

O'qituvchi: -Buning yagona yo'li Orol havzasidagi mahalliy suv boyliklaridan tejab-tergab foydalanishdir. Bu bilan uning sathini 40 metr atrofida saqlab qolish mumkin.

O'quvchi: - Agar shunday qilinmasa nima bo'ladi ?

O'qituvchi: - Bunday holda Orol o'rnida o'ta sho'r kichik bir ko'l vujudga keladiki, u dunyoning hozirgi kunda eng sho'r dengizi hisoblanayotgan Qizil dengizdan ham sho'r ko'lga aylanib qoladi.

Bu kabi suhbatlarni tinglagan o'quvchilarga «Bu haqda sizning fikringiz qanday?» degan savollar bilan murojaat qilishingiz mumkin.

Geografik tavsifda xato bormi ? Geografiya – betakror tabiyat majmuasi va uning inson xo'jalik faoliyati bilan uyg'unligini ta'minlagan Ona yer ifodasi. U borliqni o'rganar ekan go'yo uning ilmiy va shu o'rinda ijodkorona tasvirlash yoki ifodalash cheksiz va poyonsizga o'xshaydi. Balki shu boisdir, uning sirlaridan ogoh bo'lmoq uchun juda keng ma'noda fikrlar yuritmoq shartdir. Go'yo ertakdan kishi

ruhiyatiga singib kirib boruvchi geografik hududlar tasvirlanishini o'qib borar ekansiz, hayol sizni o'sha olis manzillarga eltgandek bo'ladi, sizni maftun bo'lishga majbur etgan yoki sehrlab og'ushiga chorlagan bu nozik tuyg'u soddagina bir so'z bilan «Geografik tavsif» deb nomlanadi. Faqat siz tavsifni o'qiyotganingizda mazmunan chuqur tushunsangiz, tasavvur eta olsangiz, bas.

Geografiya fani o'qituvchisi sifatida hammamiz har bir hududga berilgan tavsiflarni to'g'ri yoki noto'g'ri bayon etilganligini darhol sezamiz.

Dars davomida ma'lum hududga geografik tavsif berib turgan o'quvchi xatosini o'z o'rnida to'g'rilab boramiz. Quyidagi jumboqli tavsiflar esa ayni mana shu muammoni bartaraf etishimizga ko'mak beradi. Bu usulda dars o'tishning afzalliklari quyidagilardir:

1.O'quvchilarni kitob, karta va boshqa geografik manbalar bilan ishlashga majbur etadi.

2.Notiqligi va topqirligini oshiradi.

3.To'g'ri va noto'g'ri fikrni ajrata olishga va mustaqil fikrlashga o'rgatadi.

4.Test sinovlariga tayyorlashning eng qulay usuli yoki testning murakkab ko'rinishlaridan biridir. Masalan, test savollarida bitta to'g'ri javob borligi aniq. Bu usulda noma'lum javobni topish mumkin.

5.Tafakkur va dunyoqarashni kengaytiradi.

6.Mavzularni umumlashtirish, o'zaro farqlay olishga o'rgatadi.

7.Hatto oldingi sinflarda olingan bilimlarini ham eslashga chorlaydi.

8.Bizga ma'lumki, bir sinfda o'qiydigan barcha o'quvchining bilimi va qobiliyati bir xil emas. Bu usul asosida davrada gapirishga tortinadigan, og'zaki nutqi pastroq bolalarni baholash imkoniyatlari bor.

9.Kitobni juda ham ifodali va tezkorlik bilan o'qib, hatto yodlab oladigan, ammo tavsif mazmunini sinchkovlik bilan tahlil etmaydigan, mazmunining tub mohiyatiga aniqlik va ilmiylik bilan baho bermaydigan o'quvchilarni o'z bilimlarini qayta ko'rib chiqishga majburlaydi.

Afrika materigiga umumiy ta'rif. Afrika dunyoda kattaligiga ko'ra qit'alar orasida Yevroosiyodan keyin ikkinchi o'rinda turadi. Maydoni 30,3mln.kv. km.ga teng. Materikda tog'lar eng katta maydonlarni egallagan Yer kurrasidagi eng uzun daryo – Nil va G'arbiy yarim sharning eng sersuv daryosi – Kongo (Zair) Afrikada oqadi. Shunday qilib, Afrikadan sersuv ayni vaqtda qurg'oq materik yo'q. Ko'proq negroid irqiga mansub aholi yashaydi.

Yo'l qo'yilgan xatolar va ularning to'g'ri shakli:

1. Yevroosiy qit'a emas materik. U Amerika va Osiyo qit'alaridan keyin, uchinchi o'rinda turadi.
2. Materikda tog'lar emas, tekisliklar katta maydonni egallaydi.
3. Afrika G'arbiy emas, Sharqiy yarim sharda joylashgan. Unda joylashgan Kongo daryosi ham bu fikrdan holi emas.
4. Sayyoramizda cho'llar maydoniga ko'ra Afrika birinchi o'rinda tursada, quruqligi jihatdan u Avstraliyadan keyin turadi.

Bu tavsif xatosini o'quvchilar, umuman guruhan to'ldirilsa ko'proq samarali bo'ladi. Buni o'quvchilar karta, atlas va kitoblardan foydalanib topishlari mumkin. Bunda o'quvchilar orasida aniq va sof raqobat paydo bo'ladi. Bu o'quvchilarni chaqqonlikka, zukkolikka, mantiqan o'ylab ko'rishga o'rgatadi.

Jazoir va Efiopiyaning qiyosiy tavsifi. Har ikki davlat Afrikani Shimoli-sharqida joylashgan. Maydoniga ko'ra Jazoir bir oz ustunroq, bu davlatlar Afrikaning eng baland tog' tizmalari hududida joylashgan. Shimoldan O'rta yer dengizi bilan yuvilib turadi. Jazoir maydonining 90 foizga yaqin qismi Sahroi Kabir cho'llarida joylashgan. Bu yerda Efiopiyaga nisbatan zilzilalar ko'p bo'ladi. Bu yerda tog' platosi ustiga o'nlab yirik vulqon konuslari – tog'lar ko'tarilib turadi. Har ikkala davlatda ham qishloq xo'jaligi rivojlangan bo'lib, Efiopiya xurmo va zaytunlari bilan mashhur bo'lsa, Jazoir kofening vatani bo'lgani bilan ham farqlidir.

Yo'l qo'yilgan xatolar va ularning to'g'ri shakli:

1. Jazoir Afrika materigining Shimoli-g'arbida joylashgan.
2. Efiopiya shimolida Qizil dengiz bilan yuvilib turadi.

3. Xurmo va zaytunlari bilan Jazoir mashhur, kofening vatani esa – Efiopiyadir.

Geografik tavsiflarni faqatgina noto'g'ri shakli emas, balki to'g'ri shaklini ham, ya'ni xato bo'lmagan tavsiflarni ham berish mumkin. Bunda o'quvchilarni bilimini sinab ko'rish mumkin. O'sha tavsif berilgan ob'ekt haqidagi bilim darajasini bilish qiyin emas. Chunki, bilimli, dono, aqli zukko o'quvchilar tavsifda xato yo'qligini bilib oladilar.

Kanadaning geografik tavsifi. Kanada – dunyoning eng rivojlangan davlatlardan biri. Poytaxti Ottava shahri. Mamlakatning sharqiy qismini Kordelyera tog'lari o'rab turadi va bu uning tabiatida katta ahamiyatga ega. Kanada bug'doy yetishtirishda dunyoda yetakchi o'rinlardan birini egallaydi. Biroq uning maydoni kichikligi va suv manbalariga juda kambag'alligi to'sqinlik qiladi. Krik daryolari to'lib oqishi bahor fasliga to'g'ri kelib, bahorikor ekinlar yetishtirishga sharoit tug'iladi. Mamlakatning shimoliy qismi orollar arxipelagidan iborat bo'lib, Shimoliy muz okeani ta'siridadir. Bu yerlarda eskimoslar yashaydi. Kanada davlat bayrog'ida uning tabiati yaqqol gavdalanib turadi. Mamlakatda ikkita davlat tili – ingliz va fransuz tillari mavjud. Tub joy aholisi indeyeslar va eskimoslar – mongoloid irqiga mansub. Yevropoid va negroidlar kelgindi aholidir. Shu bois mamlakatda eskimos va indeyeslar soni eng ko'p.

Yo'l qo'yilgan xatolar va ularning to'g'ri shakli:

1. Kordelyera mamlakatning G'arb tomonida joylashgan.
2. Kanada maydoniga ko'ra va suv resurslariga boyligi jihatidan dunyoda yetakchi o'rinlardan birini egallaydi.
3. Kanadada Krik daryolari uchramaydi. Krik daryolari Avstraliyaga xos.
4. Indeyes, eskimoslar eng ko'p emas. Ular bir paytlar yevropaliklar tomonidan tabiati eng yomon yerlarga chiqib chiqarib tashlangan.

Test topshiriqlari. O'zbekiston Respublikasi ta'lim tizimida bir necha yillardan buyon o'quvchilarning bilim saviyasi, iqtidori va iste'dodlari test topshiriqlari

asosida sinab kelinmoqda. Ta'lim-tarbiya jarayonlariga bu usulni kirib kelishi muayyan darajada ta'lim sifatiga ijobiy siljishlar kiritadi.

Test sinovlari o'quvchilarni aniq fikrlashga o'rgatib ularga adolat tarozisi sifatida xizmat qilmoqda. Test - o'quvchilarni doim izlanishga chorlab, darslik bilan ishlashga, oqdan qorani ajratib olishga o'rgatib, har bir jumlaning chuqur o'qishga odatlanishga undaydi.

Xo'sh, geografiya fanidan tuzilgan test topshiriqlari boshqa fan asoslarini o'rgatish uchun qo'llaniladigan test topshiriqlaridan qanday farqlarga ega bo'lmog'i kerak?

Fikrimizcha, geografiya fanidan tuzilgan test topshiriqlari o'quvchilardan nafaqat darsliklardan olgan nazariy bilimlarini, balki ularning dunyoqarashlari, tasavvur – tafakkur doiralari nechog'lik keng ekanligini sinaydi. Demak, buning uchun o'quvchilardan har tomonlama puxta bilimga ega bo'lishlari talab etiladi. Test yechayotgan o'quvchi darslik va unga qo'shimcha adabiyotlarni, karta va atlaslarni chuqur o'zlashtirib olgandagina, tabiatning barcha sirlariga o'z qarashlari bilan yondasha olgandagina savolni oson va aniq yechishga muvaffaq bo'ladi.

Boshlang'ich geografiya kursida quyidagi testlardan foydalanish mumkin:

1. Gorizontallar yordamida qanday geografik tushunchalar ifoda etiladi?

- A) Nisbiy balandliklari bir xil nuqtalarning balandliklari tutashtirilib, ularning eng baland cho'qqilari raqamlarda ifoda etiladi
- B) Mutlaq balandliklari bir xil nuqtalar tutashtiriladi
- C) Tabiiy sharoiti mos nuqtalar o'zaro tutashtiriladi
- D) Gorizontalning to'rt asosiy va qo'shimcha tomonlarini predmetlarga tomon yo'nalishini ko'rsatadi
- E) Hamma javoblar to'g'ri

2. Gorizontallarning bir-biriga yaqin joylashganligi qanday geografik mohiyatga teng?

- A) Joy plani miqyosining yirikligi ifodalangan
- B) Relyefiy tafovutlar yo'qligini ko'rsatadi

- C) Yonbag'irning tikligi ifodalanadi
- D) Yonbag'irlarning bir-biriga uzoq va yotiqligi ifodalangan
- E) Nisbiy va mutlaq balandliklari bir xil hududlar yonma-yon va qatorma-qator joylashganligini bildiradi

3. Planda qaysi shartli belgilar G'arbdan Sharqqa yo'nalgan bo'lmog'i kerak?

- A) Planda shartli belgilarning shakli kattaligi va rangi aniq bo'lishi shart emas, qaysi tomonga yo'naltirib chizish ixtiyoriydir.
- B) Botqoqliklar.
- C) O'tloqlar.
- D) Kesilgan o'rmonlar.
- E) Alohida o'sgan daraxtlar.

4. Yoritgichning gorizontdan balandligini aniqlaydigan eng oddiy asboblarning nomi nima?

- A) Telluriy
- D) Teodolit
- B) Bussol
- C) Flyuger
- E) Kompas

5. Shamol qachon kuchli esadi ?

- A) Ikkita qo'shni joy orasidagi bosim farqi katta bo'lsa
- B) Ikkita qo'shni joy orasidagi bosim farq kuchli bo'lsa
- C) Ikkita qo'shni joy orasidagi bosim farqi bo'lmasa
- D) Okean, dengiz to'lqinlari va oqimlari kuchaysa
- E) Zilzila, vulqon va toshqinlar ta'sirida

6. Atrofi baland qorli tog'lar bilan o'ralgan sahrolarda oqadigan daryolarni aniqlab bering.

- A) Sena, Ulanu, Yelozil
- B) Amudaryo, Sirdaryo, Tenim
- C) Shimoliy Sibir, Shimoliy Amerika daryolari
- D) Gang, Hind, Nil, Kongo
- E) Krik daryolari

7. Yer kurrasining yadrosi asosan qaysi moddalarning aralashmasidan iborat?

A) alyuminiy, temir

D) nikel, surma

B) marganes, qo'rg'oshin

E) Kremniy, temir

C) oltin, platina

Bu kabi geografik testlar faqatgina o'quvchilarni bilimini sinabgina qolmay, ularni izlanishga, mustaqil fikrlashga, mantiqan o'ylab javob berishga o'rgatadi.

Test topshiriqlarini o'quvchilarga javobini topish uchun beribgina qolmay, ularni o'zlariga mavzular, bo'limlar, darsliklardan, umuman, geografiya fanidan test savollari tuzishni topshirilsa, o'quvchilar kitoblarni, atlaslarni majburiy varaqlashga majbur bo'ladilar va bu o'z samarasini beradi.

1.2. Geografik o'yin turlari

Geografik o'yinlar nihoyatda xilma-xil bo'lib, ushbu geografik o'yinlar dars va darsdan tashqari mashg'ulotlarning qiziqarli bo'lishida, o'quvchilarning geografiya faniga bo'lgan havasini oshirishda qulay va samarali vositalardan biri hisoblanadi.

«Munozara» o'yini. Munozara o'tkazish mavzusi aniq bo'lishi kerak.

O'yin texnologiyasi: geografiyadan «Orol dengizini saqlab qolish» muammosi tarixidan tanlangan muammo qismlarga ajratilib 15-20 ta qisqa savollar o'quvchilarga berilib, sinf o'quvchilari 3-4 kishidan guruhlanadi. Guruhlarning savollarga javobi muhokama etiladi va munozara boshlanadi. Munozarada har bir guruh a'zosi qo'yilgan muammolar haqida o'z fikrini bayon etish huquqiga ega.

Boshlovchi va 3 kishidan iborat ekspert guruhi barcha javoblarni tahlil qilib, eng maqbul javob variantlarini aniqlaydi va muammoni hal qilishning optimal varianti aniqlanib, munozaraga yakun yasaladi.

«Kim ko'p biladi» o'yini. Bu o'yinni geografiyaning xohlagan mavzusini o'rganishda qo'llash mumkin.

O'yin texnologiyasi: Har bir ishtirokchi biror-bir mavzu yuzasidan bittadan muammoli savol tuza olishi kerak. Savollar yozilgan qog'ozlarni o'qituvchiga topshiradilar, sinf o'quvchilari ikki guruhga bo'linadi. Boshqaruvchi qo'llarni sanab, har biriga 1 balldan qo'yadi. Har bir savolga bir o'quvchidan javob so'raladi. Agar javob noto'g'ri bo'lsa o'sha guruhdan bir ball olib tashlanadi, qaysi guruh ko'p ball to'plasa, o'sha guruh g'olib bo'ladi.

«Besh daqiqa» o'yini. Bu o'yinni geografiyada xohlagan mavzuni o'rganishda qo'llash mumkin. O'quvchilarni stol atrofida shunday joylashtirish kerakki, bir-birining nima yozayotganligini ko'rmasin. O'yinni o'qituvchi yoki a'lochi o'quvchi boshqarib borishi mumkin. U vazifani tanlaydi. O'quvchi besh daqiqa ichida topshirilgan topshiriqni bajaradi. O'quvchilar yozishni bir vaqtda tugatishi shart. Masalan, geografiyadan joy nomlari bo'lsa eng ko'p nom yozgan va uni izohlab bergan o'quvchi g'olib hisoblanadi.

«Nimaga? va nima uchun?» o'yini. Bu o'yinni barcha umumta'lim fanlarining barcha mavzularini o'rganish jarayonida qo'llash mumkin. Jumladan, geografiya fanida ham mavzularni o'rganishda qo'llasak bo'ladi, bu o'yinda o'qituvchi bir xil hajmdagi karton qog'ozlarga bittadan qirqtagacha aniq savollar yozib chiqadi. Savollar «nimaga va nima uchun?» tamoyiliga moslab yoziladi. Masalan, O'zbekiston qaysi iqlim mintaqasida joylashgan?, Shu iqlim mintaqasiga xos xususiyatlar nimalardan iborat? Va hokazo. Usulni qo'llashdan oldin barcha varaqalar yig'ib olinib, aralashtiriladi va teskari qilib qo'yib chiqiladi. O'quvchilar birin-ketin varaqa tortib, savolga javob beradilar. Agar savolga javob bo'lmasa, o'quvchi uni qaytib joyiga qo'yadi. Savolga to'g'ri javob bergan o'quvchi varaqani o'zida saqlab qoladi. Eng ko'p varaqa to'plagan o'quvchi g'olib hisoblanadi.

«Xayoliy sayohat» o'yini. Ta'limning bu o'yini geografiya, til adabiyot va boshqa fanlarda qo'llanilishi mumkin. Tarixdan biror davrdagi ma'lum bir davlat tarixiga oid, geografiyadan biron-bir qishloq, materik, orol yoki davlat bo'ylab xayoliy sayohat qilib, uni yozma tarzda yozish talab etiladi. Ishtirokchi o'zi

mustaqil o'sha joyni yozma tasvirlashi kerak. Kimning yozma tasvirlashi mazmunan yuqori saviyada yozilgan bo'lsa, u g'olib hisoblanadi.

«Uchinchi orteqlcha» o'yini. Mazkur interfaol o'yinni fanlardan xohlagan mavzuni o'rganish jarayonida qo'llash mumkin, bunda bir-biriga mos keladigan 2 ta to'g'ri va bitta noto'g'ri savol-topshiriqlar jadvali asosida o'quvchi e'tiboriga havola etiladi. Buni biz geografik topshiriqlar misolida keltiramiz:

<i>№</i>	<i>Daryolar</i>	<i>Dengizlar</i>	<i>Ko'llar</i>
1	Nil	Kasbiy	Baykal
2	Amazonka	Oxota	Viktoriya
3	Kongo	Sariq	Boltiq bo'yi

Yuqoridagilar ichida qaysi biri orteqlchaligini kim tez topsa, o'sha g'alaba qiladi.

«Pochta» o'yini. Bu geografik o'yinni barcha o'quv mavzularini o'rganish jarayonida qo'llash mumkin. O'qituvchi bir necha mavzuga mos konvert olib, uning ustiga eng zarur bo'lgan asosiy yozuvlar yozib qo'yadi va ular stol atrofiga ko'zga ko'rinarli qilib joylashtiriladi. Masalan, deylik 6-sinf «Materiklar va okeanlar» kursida 6 ta konvert olinib ostiga «Afrika», «Antarktida», «Avstraliya», «Janubiy Amerika», «Shimoliy Amerika», «Yevroosiyo» deb yoziladi. Endi shu materiklardagi daryo, ko'l, shahar, davlat, tog' va tekislik nomlari yozilgan qog'ozchalar o'quvchilarga tarqatiladi va qaysi nom qaysi materikka mos kelsa, o'quvchi uni o'sha konvertga solishi kerak. Kim savollarga ko'p va aniq javob topsa, o'sha yuqori ball oladi. Bunday usulni boshqa fanlarda ham keng qo'llash mumkin.

«Bir savolga uch javob» o'yini. Bu interfaol geografik o'yinni geografiya fanida xoxlagan mavzularini o'rganish jarayonida qo'llash mumkin. Buning uchun 40 ta bir o'lchamdagi varaqa olinadi, 10 tasiga savol va 30 tasiga javob yoziladi. Masalan, geografiyadan savol varaqasiga tabiat zonalarining joylashuvi nimalarga bog'liqlar deb yozilsa, 1-javob varaqasiga – geografik kenglik, 2-javob varaqasiga – dengiz sathidan balandligiga, 3-javob varaqasiga – dengizdan o'z o'q yaqinligiga savol-javobli varaqalari stol ustiga alohida qo'yiladi. Ishtirokchi bitta savol

yoʻzilgan varaqani olib, yoʻzilgan savolni oʻqib eʼlon qiladi, keyin boshqa ishtirokchilar javobli varaqadan bittadan olishadi. Agar, javobli varaqalar ichida savolga mos keladiganlari boʻlsa, savol bergan oʻquvchi shu javob varaqasini oʻz ichiga oladi. Oʻrtada varaqa qolmasa, oʻyin yakunlanadi. Kim koʻp javoblar varaqasini yigʻsa, u gʻolib sanaladi. Bu oʻyin oʻquvchilarni mustaqil fikrlashga chorlovchi samarali taʼlim usullaridan biridir.

«Aniqlashtirish va isbot» oʻyini. Bu oʻyin tabiiy geografiya yoʻnalishidagi mavzularni oʻqitish jarayoniga mos keladigan oʻyin boʻlib, bu geografik eksperimental masalalar bir necha usulda yechilishi mumkin. Oʻqituvchi bu usulni qoʻllashdan oldin 3 kishidan iborat ekspert guruhi tuzadi, sinf uchta kichik guruhga ajratiladi. Har bir guruh bir masalani oʻz uslubida yechib boʻlgach, ekspertlar taklif etiladi. Soʻngra har bir guruhdan har bir oʻquvchi chiqib oʻzi yechgan usulni aniqlashtiradi va isbotlab beradi. Eng original yechimga ega boʻlgan qator va oʻquvchilar gʻolib hisoblanadi. Bu oʻyin oʻquvchilarni miya faoliyatini yanada tezroq va aniq ishlashga undaydi.

«Qor uyumi». Mashq mavzusi beriladi. Avvaliga har kim bu haqda oʻzi oʻylaydi va oʻz gʻoyalarini yozib boradi. Keyin qatnashchilar ikki kishidan iborat guruhlariga birlashib, varaqalarga oʻz gʻoyalarini yozadilar. Takrorlanadigan gʻoyalar bir marta yoziladi. Keyin ular 4 va undan ortiq kishidan iborat guruhlariga birlashadilar va guruh ikki kishidan oshmasligi kerak. Guruhga har xil qilib birlashtirish mumkin. Soʻngra guruh ishlab chiqilgan gʻoyalarning har birini alohida qogʻoz varaqchasiga yozib chiqadi va varaqalarni doskaga yopishtiradi, natijani eʼlon qiladi.

«Tovush chiqarmasdan topish» oʻyini. Oʻyinni boshlashdan avval oʻquvchilarga oʻyin qoidalari tushuntiriladi, oʻyinda faol qatnashgan va shartlarini oldin bajargan oʻquvchiga baho qoʻyiladi. Oʻyin mazmunini oʻqituvchi geoekologik biron obʼekt nomini aytadi. Oʻquvchi oʻquv vositasidan shu obʼektni geografik kartadan yoki atlasdan qidiradi.

O'yinning borishi: ob'ektni topgach o'quvchi o'ng qo'lini ko'taradi, o'qituvchiga o'zi topgan ob'ektni ko'rsatadi, o'quvchi qo'li bilan ob'ektni ushlab turmasligi kerak, chunki yonidagi bola undan ko'rib olishi va foydalanishi mumkin. Shuning uchun ob'ektni topgan o'quvchi joyning nomini yodida saqlashi zarur. O'qituvchi oldin topgan va qo'lini ko'targan o'quvchining oldiga borishi va tekshirib ko'rishi kerak. «Men topdim, men topdim» deb tovush chiqargan o'quvchilarning topgani hisobga olinmaydi, bu haqida bolalar ogohlantirilib quyidagi o'yinda ob'ektni birinchi bo'lib topgan o'quvchi uni geografik karta yoki atlasdan ko'rsatishi kerak. Boshqa o'quvchilar qanchalik bilib olganliklarini sinash uchun ulardan ham ob'ekt so'raladi. Ob'ektni topgan o'quvchi o'tirgandan so'ng o'qituvchi yangi ob'ekt nomini aytadi. Shu tariqa o'yin davom etadi.

«Kartadan topish» o'yini. Har bir sinfda olib borish mumkin darsning mazmuniga qarab o'yin geografik atlasning sahifalaridagi turli ob'ektlardan bo'ladi.

O'yinni uslubi: O'qituvchi geografik ob'ektni aytadi. O'quvchilar topadi va izohlab beradi. O'quvchilar bu o'yinni bir necha bor o'ynaganlaridan so'ng tez topadigan bo'ladi. O'quvchilar murakkablashtirib borib, shu topiladigan nomning geografik koordinatalarini aniqlash topshiriladi. Buning uchun shahar va qo'riqxonalarni tanlagan ma'qul. O'quvchilar topilgan joyning koordinatalarini daftarga yozib oladilar.

«Geoekologik lug'at» o'yini. Bu o'yin sharti: o'yinni ikki o'quvchi bajaradi hamda bu o'yinga bir kishi hakamlik qiladi va yozib boradi. Bunda o'quvchilar navbatma-navbat bilan boshlanadigan geografik atama va nomlarni aytishadi.

O'yinning uslubi: masalan, «A» harfidan o'yin boshlansa, ob'ekt, aspekt, antropogen kabilar. O'yin borgan sari qizishib boradi. Nom topilmagan holda yoki geografiyaga tegishli bo'lmagan atama yoki nomlar aytgan o'quvchi yengilgan hisoblanadi.

«Qizil kitobni bilasizmi?» o'yini. O'yinning mazmuni: o'yin qatnashchilariga savollar Qizil kitob bo'yicha beriladi. Qizil kitobga kiritilgan hayvonlarning va

o'simliklarning nomi, sinfi, turkumi, oilasi to'g'risida savollar beriladi. Shu tariqa o'yin davom etadi. Kim ko'p savolga javob bersa o'sha o'quvchi g'olib bo'ladi.

«Har to'siq - bitta savol» o'yini. Dastlab o'qituvchi sinf o'quvchilarini qatorlarga qarab 3 ta guruhga bo'lib oladi. Ularga kema qoidalari birinchi darsda aytiladi.

Kema qoidalari:

1. Matros o'quvchi – ozoda kiyingan, kemani toza tutgan holda bo'lishi lozim.
2. Matros o'ziga zarur qurollarga ega bo'lgan bo'lishi kerak (daftar, kitoblar, ruchka, atlas, qalam va boshqalar).

Kema shiori: «Bir kishi hamma uchun, hamma bir kishi uchun», «Kemaga tushganni joni bir».

Dastlab o'quvchilar o'tilgan mavzu yuzasidan berilgan savollarga javob berish asosida o'z kemalarini barpo qilishadi. Buning uchun o'qituvchi o'quvchilarga o'tilgan mavzu yuzasidan savol beradi. Savolning javobi kemani barpo qiladi.

1-savol: Dunyoda maydoni bo'yicha eng katta mamlakat qaysi va u qaysi materikda joylashgan?

Javob: Rossiya, u Yevroosiyoda joylashgan.

Demak, birinchi guruh kemasi barpo bo'ldi.

2-savol: 2-3 qatorlarga beriladi va ularning ham kemalari barpo qilinadi.

O'quvchilar savollarga javob bera olmasa, savol yengillashtirilgan holda bayon etiladi. Uchchala guruhning kemalari barpo qilingandan so'ng o'qituvchi kema bayroqlarini tanlashga o'tadi.

Savol: Osiyodagi ikki kara yopiq hudud qaysi?

Javob: O'zbekiston.

Demak, guruh O'zbekiston bayrog'i ostida suzadi.

2-guruh savoli: O'zbekistonga chegaradosh maydoni eng katta mamlakat qaysi?

Javob: Qozog'iston.

Demak, 2-guruh Qozog'iston bayrog'i ostida suzadi.

3-guruh savoli: Osiyodagi quduqlar mamlakati qaysi?

Javob: Turkmaniston.

Demak, 3-guruh kemasini Turkmaniston bayrog'i ostida suzadi.

Endi o'quvchilar kemalarning nomlarini topishga o'tadilar. Kemalarni nomlashda ham o'iltgan mavzu bo'yicha yondashadi. O'tilgan mavzular tog'lar, daryolar, ko'llar bo'lishi mumkin.

1-guruh savoli: O'rta Osiyoni tadqiq etgan Labnor ko'li va yovvoyi o'tlarni topgan sayyoh kim?

Javob: Prjevalskiy.

Demak, 1-guruh kemasining nomi «Prjevalskiy».

2-guruh savoli: O'rta Osiyodagi tog'larni o'rgangan va shu tog'lardan biri uning taxallusiga aylangan olim nomini aniqlang.

Javob: Semyon Tyan-Shanskiy.

Demak, 2-guruh kemasining nomi «Semyon Tyan-Shanskiy».

3-guruh savoli: Pomir tog'laridagi eng uzun muzlikka qaysi olimning nomi qo'yilgan?

Javob: Fedchenko.

Demak, 3-guruh kemasining nomi «Fedchenko».

Kemalar barpo qilinib, bayroqlar, nomlar yoziladi. Bular doskaga magnitli qog'ozchalar yordamida yopishtirilsa yaxshi bo'ladi. Endi o'quvchilar o'zlari sayohat qilishlari kerak bo'lgan orolni tanlashadi. Aytaylik, o'quvchilar Indoneziyadagi orolni tanlashdi. Orollar atrofini mustahkam tosh to'siqlar to'sib turadi. Bu to'siqlar soni o'qituvchi yangi bo'yicha tayyorlagan savollarga mos keladi. Har bir to'siq bitta savol o'quvchilar istagan orolni tanlashadi. Masalan, Madagaskar, Shri-Lanka va hokazo orollar rasmi temir doskaga yopishtiriladi. Atrofi yumaloq qoyalar bilan o'raladi. Qoya belgisi orqasiga magnit yopishtiriladi. O'qituvchi orol atrofiga 10 ta qoya qo'ygan bo'lsa, shu asosda 10 ta yangi mavzudagi savollar beriladi. O'quvchilar kengashib uni bayon etishadi. Savolga to'g'ri javob bergan kema 1 ballga ega bo'ladi. Ularning kemasiga bitta qoya rasmi

joylashadi. Shu zaylda kemalar orolga qarab suzib boradi. Qoyalarga kemalardan to'p yoki torpeda otiladi.

«Kerakli ma'lumotlarni toping» o'yini. Bu o'yinda biror geografik ob'ekt yoki hodisa haqida tavsifnoma yozilib undagi ayrim ma'lumotlar tushirib qoldiriladi. O'quvchilarga ma'lum vaqt ichida tushirib qoldirilgan ma'lumotlarni topib tavsifnomani to'ldirish topshiriladi.

Bu o'yinning topshirig'i quyidagicha bo'lishi mumkin: Sirdaryo O'rta Osiyo va O'zbekistondagi eng uzun daryo, uning uzunligi km, Sirdaryo Markaziy Tyan Shan tog'idan boshlanuvchi daryosining Namangan shahri yaqinidagi . . . qishlog'i yonida o'zaro qo'shilishidan vujudga keladi. Uning Farg'ona vodiysidan doimiy irmog'i yo'q, u vodiyan oqib chiqqan o'ng tomondan unga kabi irmoqlar kelib qo'shiladi. So'ng u Shimol tomondan Qizilqum chegarasi bo'ylab oqib dengiziga borib quyiladi. Sirdaryo va suvlaridan to'yinadi. Uning to'lin suv davri oylarga, eng kam suvli esa . . . oylariga to'g'ri keladi.

Bu o'yin o'quvchilarning fikrlash, oldingi so'z ma'nosiga qarab keyingi so'zlarni topish qobiliyatini ancha rivojlantiradi. Bolaning qanchalik o'sha mavzu haqidagi bilimni bilib olish, hatto bu o'yin orqali butun o'quvchilar bilimlarini bilib olish mumkin. Ularni bilimlari, o'zlashtirish darajalari ham bir xil bo'ladi.

«Kim ko'p yozadi» o'yini. O'yin tartibi: o'quvchilar oldiga faqat qog'oz va qalam bo'lishi kerak. O'yinni «O'zbekiston daryolari», «Ko'llar», «Suv omborlari» temalari bo'yicha o'tkazish, ayniqsa, yaxshi natija beradi. Bu o'yin uchun ma'lum bir vaqt belgilanadi. Masalan, «O'zbekiston daryolari» e'lon qilindi, deylik, o'quvchilar esa belgilangan vaqt ichida o'zlari bilan daryo nomlarini yozib chiqishlari kerak. Yozilgan har bir daryo uchun 1 ochko beriladi. O'yinda eng ko'p ochko to'plagan o'quvchi g'olib hisoblanadi.

«Aylana» o'yini. O'yinga ishtirok qiluvchilar doira shaklida turadilar. O'yin quyidagicha boshlanadi: boshlovchi o'quvchi «Toshkent» desa, undan o'ngda turgan o'quvchi shaharning oxirgi harfi ya'ni «t» harfi bilan boshlanuvchi

O'zbekistondagi boshqa bir shaharni aytadi. Masalan: Toshkent – Termiz – Zarafshon yoki Katta Qo'rg'on – Namangan va hokazo. Qaysi o'quvchi 5-10 sekund davomida shahar yoki joy nomini ayta olmay to'xtalib qolsa u o'yindan chiqqan sanaladi. O'yin bitta o'quvchi qolguncha davom ettiladi, eng oxirida qolgan o'quvchi g'alaba qilgan hisoblanadi.

«O'zbekiston shaharlarini raqamlar yordamida o'rganish» o'yini.

O'quvchilar kuchi bilan O'zbekistonning bir necha kontur kartalari tayyorlanadi va bu kartalarda shaharlar o'rniga raqamlar qo'yib chiqiladi. Butun sinf o'quvchilari bir vaqtda o'yinda ishtirok etishlari mumkin.

O'yinni boshqaruvchi qo'lida kontur kartadagi raqamlar o'rnidagi shaharlarning ro'yxati bo'lishi kerak. O'quvchilar qo'lida esa diametri 1 sm kattalikdagi doirachalar bo'lishi lozim. Ular o'yin boshqaruvchi e'lon qilgan shaharni kontur kartadagi raqam ustiga qo'yib borishlari kerak. Masalan, agar o'qituvchi 5 deb e'lon qilgan bo'lsa, o'quvchi o'z doirasini Termiz shahrining ustiga qo'yishi kerak va hokazo. O'yinni boshqaruvchi o'yin natijalarini tekshirib, g'olib o'quvchini aniqlaydi. O'quvchining har bir to'g'ri javobiga 1balldan berib borish mumkin.

«Toponimik» o'yini. Bir xil kattalikdagi qog'ozlarga mamlakatimiz geografiyasiga oid bo'lgan joylarning nomlari yoziladi. Toponimik nomlar taxminan quyidagicha bo'lishi mumkin: Xorazm, Orol, Amudaryo, Toshkent, Qo'qon, Tyan Shan va hokazo bo'lishi mumkin.

O'yin tartibi: joy nomlari yozilgan qog'ozlarni aralashtirib, yozuvli tomoni pastga qaratilgan holda stol ustiga yoyib chiqiladi. O'quvchilar o'ziga tushgan nomlarga qisqacha izoh berishi kerak. Masalan: Toshkent – tosh shahri yoki tosh gala demakdir va hokazo. O'yinga taklif qilingan o'quvchiga beshtagacha qog'oz olishga ruxsat beriladi. O'quvchi javobini yozma va og'zaki ravishda berishi mumkin. Agar o'quvchi savolga og'zaki javob bersa, nom yozilgan qog'ozni o'z qo'lida olib qoladi. Javob bera olmasa uni joyiga qo'yadi. Demak,

o'quvchi qo'lida qolgan har bir qog'ozga 1 ball beriladi. Bu o'yinni butun sinf o'quvchilari ishtirokida uyushtirish ham mumkin. O'yin davomida qaysi o'quvchi ko'p ochko to'plasa, o'sha o'quvchi g'alaba qilgan hisoblanadi. Bu o'yinda o'z qishlog'i, rayoni geografiyasiga oid bo'lgan nomlarni ham o'rganish mumkin. Toponimik o'yini o'quvchilarni ko'pgina ma'lumotnoma materiallari bilan tanishishga majbur qiladi.

«**Kim tez**» o'yini. O'zbekiston foydali qazilmalarining geografik joylashishini chuqurroq o'rganish maqsadida bu o'yindan foydalanish mumkin. Sinf o'quvchilari foydali qazilmalarni jadvaldagi raqamlar yordamida ko'rsatishi kerak, qaysi o'quvchi bu vazifani tez va aniq to'ldirsa, o'sha o'quvchi g'alaba qilgan hisoblanadi.

Margenes	Neft	Oltin	Gips	Kvars	Marmar	Min.suvlar	Mis rudasi	Gaz
1	2	3	4	5	6	7	8	9
To'sh ko'mir	Kaolin	Osh tuzi	Kaliy tuzi	Fosforit	Kaliy rudasi	Oltin gugurt	Volfram	Qong'ir ko'mir
10	11	12	13	14	15	16	17	18

Foydali qazilmalar chiqadigan joylar	Javoblar	Foydali qazilmalar chiqadigan joylar	Javoblar
1. Polvontosh 2. Muborak 3. Jarqoq 4. Kogon 5. Muruntov 6. Nurota 7. Chortoq		8. Ohangaron 9. Sharg'un 10. Xo'jahol (Sulton Uvays tog'i) 11. dengiz, ko'l 12. Shersuv 13. Chiachan 14. Olmaliq 15. Xo'jayikon	

«O'zbekiston sanoat korxonalarini o'rganish» o'yini.

«O'zbekiston sanoati» mavzusini o'rganish jarayonida bu o'yindan foydalanish mumkin. O'yinda butun sinf o'quvchilari ishtirok etishi lozim. Sinfdagi o'quvchilar soniga qarab bir xil kattalikdagi qog'ozga Respublikamizda ishlab chiqariladigan eng muhim sanoat mahsulotlarining va ba'zi korxonalarining nomlari yoziladi, lekin ular joylashgan shaharlar yozilmaydi.

Mahsulot va korxonalarning nomlari	Qayerda joylashgan
1. Kanop zavodi.	?
2. Eng yirik shoyi kombinati.	?
3. Paxta terish.	?
4. Azot o'g'itlar ishlab chiqaruvchi zavod.	?
5. Ekskovator zavodi.	?
6. Baliq-konserva kombinati.	?
7. Eng yirik meva-konserva kombinati.	?
8. Superfosfat o'g'itlari ishlab chiqaruvchi zavodlar.	?
9. Gilam va palos fabrikalari.	?

O'quvchilar belgilangan vaqt ichida so'roq alomatlari o'rniga tegishli zavod va korxonalar joylashgan shahar nomini yozishlari kerak. Bu vazifani to'liq va xatosiz bajargan o'quvchi o'yin g'olibi hisoblanadi. O'yinda xaritadan foydalanish mumkin.

«Nega va nima uchun?» o'yini. Bu o'yin faqat iqlim mavzusida emas balki boshqa mavzularni o'rganishda ham qo'l keladi.

O'yin texnologiyasi: teng kattalikdagi qog'ozlarga o'quvchilarga berilishi lozim bo'lgan savollar yoziladi. Bu savollar nega va nima uchun so'rog'i ishtirokida bo'lishi mumkin. Masalan:

- I.** Nima uchun yanvarning o'rtasida harorat Surxandaryo viloyatida Toshkentga nisbatan yuqori?

2. Yozda Termiz issiqmi yoki ekvator? Ularning qaysi birida issiqqa bardosh berish oson va nima uchun?
3. Nima sababdan Samarqand viloyatida tog'larning g'arbiy yonbag'irlariga yog'in ko'p tushgan va hokazo?

Savolga javob berishni istagan o'quvchi bir yo'la 3 ta savolni oladi. Agar o'quvchi javob bera olsa, qog'ozni o'zida olib qoladi, javob bera olmasa qog'ozni joyiga qo'yadi. Demak, qaysi o'quvchi qo'lida qog'oz ko'p to'plansa, o'sha o'quvchi g'olib hisoblanadi.

«Aqliy hujum» o'yini. Bu o'yinni barcha fanlarda samarali qo'llash mumkin. O'qituvchi bir-biri bilan bog'liq bo'lgan mavzularning har biriga doir 15 ta dan qisqa va aniq savollar tuzib chiqadi. Mavzular 8-10 ta bo'lishi mumkin. Sinf o'quvchilarini 8-10 ta guruhga ajratib, har biriga savollar yozilgan kartochkalar tarqatiladi. 10 daqiqa o'quvchilar savollarga tayyorlanish davomida musiqali tanaffus e'lon qilinadi. Mavzular va guruhlarini birin-ketin muayyan tartibda joylashishi zaruriy shartdir.

O'yin texnologiyasi: 1-guruh Respublika geografik o'rniga tayyorlansa, 2-guruh o'lkaning o'rganilishi tarixi, 3-guruh relyefi, 4-guruh geologik tuzilishi, 5-guruh foydali qazilmalari, 6-guruh ichki suvlari va daryolari, 7-guruh iqlimi, 8-guruh tuproqlari, 9-guruh o'simlik va hayvonot dunyosi, 10-guruh o'lka tabiatini muhofaza qilish va hokazo. Maxsus tayyorgarlik ko'rilgandan so'ng o'qituvchi har bir guruhdan xohlagan o'quvchini chaqirib, 15 ta savol-javob talab qiladi. Aqliy hujum qisqa muddatda o'tkazilib, yakunlanadi.

«Aqliy hujum» usulini qo'llashdagi asosiy qoidalar:

1. Bildirilgan g'oya va fikrlar muhokama etilmaydi.
2. Bildirilgan g'oya va fikrlar hatto bo'lmag'ur bo'lsayam inobatga olinadi.
3. Qancha ko'p g'oya va fikrlar bildirilsa, shuncha yaxshi.
4. Bildirilgan g'oya va fikrlarni to'ldirish va amalga kengaytirish mumkin.
5. G'oya va fikrlarni bildirish uchun aniq vaqt belgilanadi va qat'iy reglament belgilanadi.

«6 x 6» o'yini. Ushbu o'yin yordamida bir vaqtning o'zida 36 nafar ta'lim oluvchi muayyan faoliyatga jalb qilish orqali ma'lum topshiriq yoki masalani hal etish, shuningdek, guruhlarining har bir a'zosi imkoniyatlarini aniqlash, ularning qarashlarini bilib olish mumkin. «6 x 6» o'yini asosida tahlil etilayotgan mashg'ulotning har birida 6 nafardan ishtirokchi bo'lgan 6 ta guruh o'qituvchi tomonidan o'rtaga tashlangan muammoni muhokama qiladi, belgilangan vaqt nihoyasiga yetgach, o'qituvchi 6 ta guruhni qayta tuzadi, qaytadan shakllangan guruhlarining har birida avvalgi yangi shakllangan guruhda o'z jamoadoshlariga avvalgi guruh tomonidan muammo yechimi sifatida taqdim etilgan xulosani bayon etib boradilar va mazkur yechimlarni birgalikda muhokama qiladilar.

«6 x 6» o'yini guruhlarining har bir a'zosini faollik, o'z fikrini ifoda etishda guruhdoshlarining fikrini tinglay olish, o'rtaga tashlanayotgan bir necha fikrni umumlashtira olish, shuningdek, o'z fikrini himoya qilishga o'rgatadi. Eng muhimi, mashg'ulotlarda ishtirokchilarning har biri qisqa vaqt (20 daqiqa) mobaynida ham munozara ishtirokchisi, ham munozara tinglovchisi ham ma'ruzachi sifatida faoliyat olib boradi.

Ushbu o'yinni 5-6-7 hatto 8 nafar ta'lim oluvchidan iborat bo'lgan bir necha guruhlarda ham qo'llash mumkin. Biroq yirik guruhlarda «6 x 6» metodi qo'llanilganda, vaqtni ko'paytirishga to'g'ri keladi, chunki bunday mashg'ulotlarda munozara uchun ham axborot berish uchun birmuncha ko'p vaqt talab etiladi.

1. O'qituvchi mashg'ulot boshlanmasidan oldin 6 ta stol atrofiga 6 ta stul qo'yib chiqadi.
2. Ta'lim oluvchilar o'qituvchi tomonidan 6 ta guruhga bo'linadilar. Ta'lim oluvchilarni guruhlariga bo'lishda o'qituvchi quyidagicha yo'l tutishi mumkin: 6 ta stolning har biriga muayyan ob'yektlarni masalan, kema, baliq, delfin, kit, akula hamda qirg'oq surati tasvirlangan lavhani qo'yib chiqadi. Mashg'ulot ishtirokchilariga kema, baliq, delfin, kit, akula va qirg'oq surati tasvirlangan jami 36 ta varaqchalardan birini olish taklif etiladi. Har bir

ta'lim oluvchi o'zida tanlangan varaqchada tasvirlangan surat bilan nomlanuvchi stol atrofiga qo'yilgan stuldan joy egallaydi.

3. Ta'lim oluvchilar joylashib olganlaridan so'ng o'qituvchi mashg'ulot mavzusini e'lon qiladi, hamda guruhlariga muayyan topshiriqlarni beradi. Munozara uchun belgilangan ma'lum vaqt munozara jarayonini tashkil etadi.
4. O'qituvchi guruhlarining faoliyatini kuzatib boradi, kerakli o'rinlarda guruhlar a'zolariga maslahatlar beradi, yo'l-yo'riqlar ko'rsatadi, hamda guruhlar tomonidan berilgan topshiriqlar to'g'ri hal etilganligiga ishonch hosil qilingandan so'ng guruhlardan munozaralarni yakunlashni so'raydi.
5. Munozara uchun belgilangan vaqt nihoyasiga yetgach o'qituvchi guruhlarini yangidan shakllantiradi. Yangidan shakllantirilgan har bir guruhda avvalgi 6 tadan guruhning har birida bitta vakil bo'lishi inobatga olinadi, ta'lim oluvchilarning o'z o'rinlarini almashtirib olganlaridan so'ng aniq belgilangan vaqt ichida guruh a'zolari avvalgi guruhlariga topshirilgan vaqt va uning yechimi xususida guruhlariga so'zlab beradilar. Shu tartibda yangidan shakllantirilgan guruh avvalgi guruhlar tomonidan qabul qilingan xulosalarni muhofaza qiladilar va yakuniy xulosaga keladilar

«Ajurli arra» o'yini. «Ajur» fransuzcha so'z bo'lib «bir yoqdan ikkinchi yoqqa o'tgan ikki tomoni ochiq» ma'nosini anglatadi.

Bu o'yin tuzilishiga ko'ra quyidagi bosqichlardan tashkil topgan:

- Topshiriqni bo'lish: topshiriq va matn materiallari bir necha asosiy qism mavzularga bo'linadi.
- Birlamchi guruhlar: har bir guruh a'zolari mavzuni olib ekspertga aylanadilar.
- Ekspert guruhlar: quyida bir mavzuga oid topshiriqlari mavjud bo'lgan, o'quvchilar mavzuni muhokama qilish, boshqalariga o'rgatish uchun ekspert guruhiga birlashadilar. Birlamchi guruhlar: o'quvchilar o'zlarining birlamchi guruhiga qaytadilar va ekspert guruhida o'rganganlarini o'qitishadi.

Ushbu o'yinning mohiyatiga aniqlik kiritish uchun quyidagilarni tavsiya etamiz:

- ✓ o'qitish jarayonida bu tarzda yondashilganda o'quvchilarning boshlang'ich axborotlarni uzatish zaruriyati tug'ilsa, ma'ruza o'rnini bosa oladigan samarali vosita hisoblanadi.
- ✓ o'qituvchi murakkab mazmunli mavzular bo'yicha o'quvchilarga dars tayyorlash uchun oldindan ularning har biriga mo'ljallangan alohida axborotnoma tayyorlaydi, unda darslikdan, qo'shimcha adabiyotlardan, gazeta, jurnallardan materiallar olingan bo'ladi.
- ✓ har bir o'quvchi 2 guruh tarkibida ishtirok etadi, dastlab birlamchi guruh o'z uyi, keyin esa «ekspert» guruhiga birlashib o'quv elementlarini mustaqil o'rganishadi, ekspert guruhining tezda tashkil etish uchun o'quv elementlarini mustaqil o'rganishadi. Ekspert guruhining tezda tashkil etish uchun o'quvchilar olgan axborotli paketlarida har bir mavzuga oid materiallar bir xil arngdagi qog'ozlarga yozilgan yoki rangli qalam bilan qog'ozning biror joyi bo'yalgan bo'ladi.
- ✓ har bir guruhda 3-5 kishi bo'ladi, har bir o'quvchi «o'z uyidagilar bilan qayta uchrashish joyini aniq belgilab oladi.
- ✓ o'qituvchi o'quvchilarni «rangli» topshiriqlar asosida guruhga birlashtirishni taklif etadi va ular alohida mavzular bo'yicha ekspertga aylanadi. Qizillar o'ng qatorga, ko'klar chap qatorga jamlanadi.
- ✓ Guruhlarga axborotli paket tarqatiladi. Har qaysi guruh turli xil materiallar to'plashni olib, ularni o'qib muhokama qilib, o'sha axborotlar bo'yicha «ekspert»ga aylanadi. O'quv materiallari bo'yicha «ekspert» bo'lishi uchun o'quvchilarda vaqt yetarli bo'lishi kerak.
- ✓ O'quvchilarga quyidagi topshiriqlar beriladi: a) paketdagi materiallarni qunt bilan o'rganing, muhokama qiling. b) bir-biringizdan o'quv materialini har biringiz tushunib olganingizga ishonch hosil qiling. v) «o'z-o'zingiz»

guruhini o'qitish zarurligini hisobga olib, o'quv materialini eng muhim elementlariga e'tibor bering.

- ✓ O'quvchilar birinchi guruhga qaytadilar, har biri «o'z uyi» guruhiga axborot beradi. Birinchi guruhga ekspert guruhidan bittadan o'quvchi bo'lishi shart, o'quvchi o'rganib kelganlarini o'z guruhiga o'rgatadi.

«Shartli belgilarni bilasizmi?» o'yini.

Bu o'yin joy plani va geografik xaritalar bo'limidagi joyning topografik planidan foydalanish mavzusini o'rganib bo'lgach tashkil etiladi. Bunda o'qituvchi biror kichik hudud bo'ylab uyushtirilgan sayohat yo'li va safar davomida duch kelingan geografik ob'ektlarni o'z ichiga oluvchi geografik sayohatnoma tuzadi va uni sinf doskasiga yozadi. O'quvchilarga ushbu sayohatnomani daftarlariga yozishlarini faqat undagi geografik ob'ektlarning nomlari so'zlar bilan emas, ularning shartli belgilarini chizib ifodalashlari topshiriladi. Ushbu o'yinni foydali qazilmalarning shartli belgilari asosida ham tashkil etish mumkin. Bunda o'qituvchi mamlakatimiz foydali qazilmalariga doir hikoya matnini tuzadi. Hikoyada foydali qazilmalarning nomlari so'zlar bilan emas, ularning shartli belgilari asosida ifodalanadi. O'quvchilar interfaol usulda guruhlariga bo'linib, har bir guruhga ushbu hikoyani shartli belgilari o'rniga kerakli so'zlarni qo'yib, ma'lum vaqt ichida o'qib berishlari topshiriladi. Qaysi guruh birinchi bo'lib hikoyani to'g'ri va xatosiz o'qib bera olsa, o'sha guruh g'olib bo'ladi. Ushbu hikoya matni quyidagicha tuzilishi mumkin:

Vatanimiz hududi turli foydali qazilmalarning ulkan zahiralariga ega. Bu tabiiy boyliklar o'lkamizning turli qismlarida quyidagicha joylashgan:

yoqilg'i qazilma boyliklari ▲ va △ konlari – Farg'ona vodiysi, Surxondaryo, Qashqadaryo, Buxoro viloyatlari va Qoraqalpog'istonda va ■ konlari, Toshkent va Surxondaryo viloyatlari hududlarida mavjud. Rudali mineral boyliklardan ●
 ⊗ ■ ○ □ ◯ ▲ ⊗ ⊙ ◊ konlari Toshkent, Navoiy, Jizzax, Surxondaryo, Samarqand viloyatlari va Farg'ona vodiysi viloyatlari hududlarida

topilgan rudamas foydali qazilmalardan      konlari – Surxandaryo, Navoiy, Qashqadaryo, Buxoro viloyatlari va Qoraqalpog'iston hududlarida bor.


Binokorlik materiallari konlaridan:      va boshqa shu kabilarning konlari barcha viloyatlarimiz hududlarida mavjud bo'lib, ulardan Respublikamiz xo'jalik tarmoqlarini rivojlantirishda keng foydalanilmoqda. Shu tariqa matnlar tuzish mumkin.

«Geografik krossvordlar va skanvordlar yechish» o'yini.

Bu o'yindan barcha fanlar bo'yicha o'tiladigan darslarda, jumladan, geografiya darslarida ham samarali foydalanish mumkin. Bu o'yin odatda darslikdagi yirik bo'limlar mavzulari o'rgatib bo'lingach takrorlash darslarida bo'lim mavzulari materiallari bo'yicha tuzilgan krossvordlar asosida o'tkaziladi.

Shuningdek, bu o'yinni ayrim mavzularni o'rgatib bo'lgach, shu mavzudagi ma'lumotlar asosida krossvord tuzib o'quvchilar bilimlarini sinash va mustahkamlash maqsadida ham o'tkazish mumkin. Masalan, tog'lar, daryolar, ko'llar, dengizlar, davlatlar krossvordlari kabi.

Yevroosiyo ning daryolari va ko'llari krossvordi



Bo'yiga: 1. Tibet tog'laridan boshlanuvchi daryo. 2. Alp tog'laridan boshlanib, O'rta dengizga quyiladigan daryo. 3. Yevroosiyodagi kattaligi bo'yicha ikkinchi o'rinda turuvchi ko'l. 4. Bengaliya qo'ltig'iga quyiladigan daryo. 5. Yevropa qit'asidagi eng uzun daryo. 8. Taklo-makon cho'lini kesib o'tuvchi daryo.

Eniga: 2. Alp tog'laridan boshlanib, dengizga quyiladigan daryo. 6. Yevroosiyoning shimoli-g'arbidagi chuchuk suvli ko'l. 7. Amur daryosining irmoqlaridan biri. 9. Amur daryosining irmoqlaridan biri. 10. Yevroosiyoning sharqidagi janubiy sersuv daryo. 11. Yevroosiyoning Janubi-sharqidagi Janubiy Xitoy dengiziga quyiladigan daryo.

II.Bob. Dars va darsdan tashqari ishlarda geografik o'yinlardan foydalanish

2.1. Darsda geografik o'yinlarni qo'llash

Geografiya – tabiiy fanlar sultonidir. Yer deb atalmish hayot maydoniga aylangan borliqni o'rganuvchi fan bo'lib, bu fanni o'rganishga har bir davr ziyolilari o'z qarashlari bilan yondashganlari aniq. Bugungi kunga kelib geografiyani takomillashtirishga yanada katta e'tibor bilan qaralmoqda.

Geografiya – darslarini hayotga bog'lash, ularni qiziqarli va ijodiy tashkil etish bosh maqsaddir. Bunda asosiy rolni geografik o'yinlar egallaydi. Geografik o'yinlar nihoyatda xilma xil bo'lib, darsda va darsdan tashqari mashg'ulotlarni

qiziqarli bo'lishida o'quvchilarning fanga bo'lgan qiziqishlarini oshirishda qulay va samarali vositalardan biri hisoblanadi. Dars jarayonida tashkil etuvchi fanga doir turli o'yinlar, noan'anaviy darslarning muhim shaklidir. Ular o'quvchilarning shu fanga qiziqishlarini, mehrini kuchaytiruvchi, ularning darsdagi ruhiy toliqishlarini oldini oluvchi ziyraklik va topqirlik qobiliyatlarini rivojlantiruvchi hamda bilim saviyalarini yanada oshirishga undovchi muhim omil hisoblanadi. Geografiya darslarida tashkil etish mumkin bo'lgan geografik o'yinlar har bir sinfda mavzuning mazmuniga mos kelishiga e'tibor beriladi.

Geografik o'yinlar qaysi turda bo'lmasin o'quvchini mustaqil fikrlashga, aqlini peshlashga o'rgatadi. O'yin turlarining qaysinisini qay vaqtda qo'llash xususida qat'iy ko'rsatma berib bo'lmaydi, chunki geografik o'yinlar har bir darsda mavzuni mazmuniga qarab tashkil etiladi. Geografik o'yinlarni tashkil etganda o'quvchining yosh xususiyati, sa'viyasi o'yin vaqtida hisobga olinadi.

Reyting sinov daftarchasida o'tilgan mavzularni o'quvchilar tomonidan qay darajada o'zlashtirilayotganini muntazam tekshirib borish maqsadida geografiya fani bo'yicha maktabda o'quvchilarning bilim va ko'nikmalarini hisobga olib boruvchi alohida «reyting varaqasi» joriy qilish mumkin. Sinfdagi har bir o'quvchi alohida sinov daftarchasi tutib, unda geografiyani turli mavzular bo'yicha tushunchalar, qonuniyatlarni qay darajada o'zlashtirganini qayd qiladi. Har bir mavzu bo'yicha tekshirib ko'rilishi shart bo'lgan yozma, og'zaki savollar, amaliy ishlar, yakuniy baholarni o'quvchilar ana shu daftarga yozib boradilar.

Har bir yangi mavzudagi tushuncha va qonuniyatlarning o'quvchilar tomonidan puxta o'zlashtirilishi, ularning yodida saqlanib qolishi faqatgina og'zaki yodlash ko'nikmalaridan foydalanib qolmasdan balki geografiya didaktikasining yangi ma'naviy usullaridan keng foydalaniladi. Ulardan biri tayanch konspekt tuzish, uni chuqur tahlil qila bilish usulidir. Uning mohiyati nimada? Tayanch konspekt, rasm, alohida so'zlar, hatto ayrim harflar, formula va boshqa xildagi konspekt yordamida o'tilgan mavzuni, qisqa va tushunarli holda sinf doskasida ifodalashdan iboratdir. Yangi mavzuni o'tish jarayonida avvalo uni mukammal

tushuntirib beriladi. So'ngra o'quvchilar mavzu materiallarini turli xil rasmlar, qisqartma so'zlar, rang-barang indekslar yordamida ifodalab, darsni bir necha bo'limlarda o'rganishadi. Har bir bo'limdagi asosiy g'oya va tushunchalar maxsus konspekt yordamida mustahkamlangandan keyin o'quvchilar yangi darsning o'zlashtirilishi zarur bo'lgan eng asosiy tushunchalarini bilib oladilar va quyidagilarga e'tibor qiladilar.

1. Nazariy materiallarni bilish.
2. Tematik kartalarni taqqoslab ular o'rtasidagi aloqalarni ko'ra olish va tushuntirib berish.
3. Geografik nomlar, atamalarni bilish.
4. O'lkashunoslik.

5. Berilgan rasmdagi tasvir O'zbekistonning qaysi qismiga tegishli ekanligini aniqlash bo'yicha bilim va ko'nikmalar tekshirilishini bilishadi. Geografik o'yin, dars jarayonida o'quvchi ozmi-ko'pmi charchaydi, shu bois uni biroz chalg'itish, ruhiy yengillik berish maqsadida ta'lim usullari qisman o'zgartiriladi, ayniqsa, dars an'anaviy «o'qituvchi - o'quvchi» muloqotiga asoslangan usullarda o'tkazilganda o'quvchilarning faolligini oshirish maqsadida ko'pchilik muallimlar turli xildagi o'yinlardan foydalanishadi.

Ko'p yillardan buyon geografiya darslarida «Xayoliy sayohat», «Topishmoqlar», «Krossvord» va turli xil boshqotirmalarni yechish mashqlari qo'llanib kelinadi. Usti yelim qog'oz bilan o'ralgan doira shaklidagi diametri 45-50 sm karton gorizontning asosiy romlar bo'yicha 8 bo'lakka bo'linadi. Har bir bo'lakka 1 dan 8 gacha sonlar ketma-ket belgilanishi shart emas. Qo'yilgan bo'laklarning ichi turli ranglarda, geografik tasvirlar, ma'lumotlar bilan bezatilishi mumkin. Bu doira sinf doskasiga osig'lik bo'lib, uning yonida maxsus xaltachasida qog'oz konvertida 1 dan 8 gacha sonlar yozilgan mayda kartochkalar joylanadi. Ular har bir son uchun 10-12 tadan yasaliib, bizning o'yinimizda xaltachadagi kartochkalarning soni 100 tagacha bo'ladi.

O'yin quyidagicha o'tadi. Muallim o'tilgan mavzu bo'yicha bironta izoh, tushuncha yoki joy nomini o'ylab u necha harfdan iborat bo'lsa, doskaga shuncha katakcha chizadi. So'ng o'yin shartlari tushuntiriladi. Partalarning necha qator joylashuviga qarab sinf ikki yoki uch bo'g'inga bo'linadi. Har bir bo'g'inning boshlig'i o'z o'quvchilari bilan o'yinni boshqarib, ular to'plangan ballni doskaga yozib boradi. Avval birinchi bo'g'ning bir qatorida o'tirgan o'quvchidan biri (kim javob berishini ular o'zaro kelishib oladilar) so'ngra ikkinchi bo'g'inning birinchi qatori va hokazo javob berishi uchun chaqirilgan o'quvchi topilishi lozim bo'lgan so'zning bironta harfini yoki so'zning o'zini aytishi kerak bo'ladi. Avvalo u doskadagi xaltachadan nomer oladi, olgan nomeri karton doiradagi bo'laklar sonini belgilaydi. Masalan, birinchi nomerni olgan o'quvchiga o'ylagan so'z qaysi mavzuga bag'ishlanganligini aytib, masalaga biroz yengillik kiritadi. Ikkinchi nomerga tushsa, o'quvchi joyiga qaytib o'tishi kerak, chunki bu nomer navbatni boshqa o'quvchiga berishni talab qiladi. Uchinchi nomerli kartochkalarni olgan o'quvchining omadi keladi, chunki bu o'yin shartiga ko'ra ushbu nomerni olgan o'quvchiga muallimning o'zi so'zning bitta harfini aytib yordam berishi kerak. Bitta harf topilib, doskadagi katakchalarga yozilgach so'zni yoki undagi qolgan harflarni topish o'quvchiga havola qilinadi. To'rtinchi nomerni olgan o'quvchining o'rnini boshqasi egallaydi. Bir harfni to'g'ri topgan o'quvchi komandasiga bir ball keltirib, yana xaltadan kartochka olib, o'yinni boshidan boshlaydi.

O'yinlardan ta'lim-tarbiya jarayonida foydalanar ekanmiz, uning 3 jihatiga e'tibor qaratiladi.

1. O'yin – mashq.
2. O'yin – topishmoq.
3. O'yin – musobaqa.

Geografiya darslarini qiziqarli va ko'rgazmalar o'tkazishda karta va geografik atlasdan foydalanish katta ahamiyatga ega. O'quvchilarni kartadan foydalanish va uni o'qiy olishga o'rgatish, ularda geografik bilimlarga qiziqish ko'nikmasini tug'diradi, lekin kartani o'qish ko'nikmasi osonlik bilan egallanmaydi. Geografik

kartalarni o'qishni bilgan o'quvchi geografiyani nazariy bilimlarini tez o'rgana oladi. O'quvchilar kartadan geografik ob'yektni topa olmaslik hodisalari ham uchraydi. Xo'sh, bu holda nima qilish kerak, qanday qilsa o'quvchi kartadan kerakli ob'yektlarni tez topadigan bo'ladi. Bunda geografik o'yinlar yordam beradi. O'yin turlari juda xilma xil bo'lib o'quvchilarni qiziqishini, fanga bo'lgan e'tiborini oshiradi, bolada bilim jihatdan ham emas, balki ruhiy jihatdan ham ancha samarali holatlarni ko'rishimiz mumkin, o'quvchilarni bilimini oshiribgina qolmay, ularning ta'lim-tarbiyasini, zehni, xotirasini o'tkirlaydi, ularni topqirlik, tezkorlik, chaqqonlik xususiyatlarini ancha mukammal o'sishiga xizmat qiladi. Geografik o'yinlardan foydalanish uslublari turli xil bo'lib, ularni dars jarayoniga qarab qo'llash mumkin.

O'yin turlari va ulardan foydalanish yo'llari quyidagi jadvalda beriladi:

№	O'yin turlari	Geografiyaning foydalaniladigan qaysi kursida	Foydalanish yo'llari
1	Boshqariladigan o'yinlar	Tabiat	Darsda bilimlarni oshirib, chuqurlashtiradi.
2	Sayru-sayohat shaklidagi o'yinlar	Tabiiy geografiya	Fanga qiziqishni oshiradi.
3	Musobaqa tarzidagi o'yinlar	O'rta Osiyo tabiiy geografiyasi	Dars mazmunini boyitib, qiziqishni oshiradi, faolikka undaydi.
4	Rolli o'yinlar	O'zbekiston iqtisodiy va ijtimoiy geografiyasi	Darsni qiziqarli bo'lishiga, yangilikka intilishga, muammoni hal etishga, sirlarni yechishga undaydi.

Ta'lim-tarbiyada o'yinlardan foylanish: o'yin bola faoliyatining almashtirib bo'lmaydigan tashkiliy shaklidir. Shuning uchun ham geokologik ta'lim tarbiyaga o'yin muhim o'rin tutadi. Tarbiya o'yinidan majmualiy foydalanish bola faoliyatiga ta'sir ko'rsatib, uni turli tomonga yo'naltirish mumkin. Shuning uchun ham o'yinning jamoa shakllarida tashkilotchi bolalar boshqa bolalarni ham o'ziga ergashtira oladi. Bu esa o'yin omilining katta tarbiyaviy ahamiyati borligini bildiradi. Bizningcha, geografiyadan foydalaniladigan o'yinlarni xarakteriga qarab besh guruhga bo'lish mumkin:


1. Stolda bajariladigan loto, krossvord, rebuslar.
2. Musobaqa o'yinlari, o'tkir zehnlilar mushoirasi turnirlari.
3. Harakatli o'yinlar.
4. Rolliiy o'yinlar.
5. Kompyuter o'yinlari.

Geokologik o'yin bolalarning bilimga qiziqishlarini faollashtirish yo'lidagi eng qulay vositadir. Bulardan eng qizig'i roli o'yinlar. Bunda tashabbus bilan bolalar o'z oldiga qo'ygan topshiriqlarni hal qilish, qiyinchiliklarni yengish, mehnatga muhabbat, xarakteriga ta'sir qilish mumkin. Bolalar quruq, zerikarli tadbirlardan charchaydilar, o'yinga esa hamisha tayyor turadilar. Yuqori sinf o'quvchilari ommaviy o'yinlardan quyi sinf o'quvchilariga yordam beradi, savol-javoblarda faollikka o'rgatadi. Geografik o'yinlar har bir darsda mavzuni mazmuniga qarab tashkil etiladi. Geografik o'yinlarni tashkil etganda o'quvchini yosh xususiyati, saviyasi, o'yin vaqti hisobga olinadi.

Tabiiy geografiyani boshlang'ich kursida viktorina savollari, boshqotirma, topishmoq, krossvordlardan foydalanib, darslarni qiziqarli va mazmunli o'tish mumkin. Masalan, geografiyani boshlang'ich kursida o'tilgan mavzular yuzasidan krossvord tuzish va tuzilgan krossvordni yechish bolalarni aqlini charxlaydi, eslash, xotirada saqlab qolish qobiliyatlarini o'stiradi. Bunday krossvordlar oddiy va sodda tuziladi:

Bo'yiga:

1. Yer sharining modeli.



Bunday krossvordlar o'quvchilarni ruhiy toliqtirmaydi, aksincha ularni qiziqtiradi. Bundan tashqari mavzularni o'tganda mavzuga doir «Tez aytish» o'yinlarini ham qo'llash mumkin, ya'ni: Biriz bu shahar emas, u nima? Aysberg bu vulkan emas, u nima? Jungli bu xalq emas, u kim? Savanna bu daryo emas, u nima? Bu kabi o'yinlar bolalarni chaqqonlikka, o'z fikrini tez va aniq bayon qila olish, ko'z oldiga o'sha ob'yektlarni gavdalantirish qobiliyatlarini tarbiyalaydi.

Bundan tashqari topishmoqlardan ham dars davomida foydalanish mumkin. Masalan, odamsiz mamlakat, uysiz shahar, daraxtsiz o'rmon, suvsiz daryo qayerda bo'lishi mumkin?

Bunday topishmoqlar, o'quvchilarni fikrlash, mantiqan o'ylab javob berishga o'rgatadi. Faqatgina topishmoqlarning javobini emas, umuman har bir gapining mazmuniga, mohiyatiga yetib javob berishga undaydi, geografiya faniga bo'lgan e'tiborini kuchaytiradi, o'quvchilar ham o'zlari topishmoqlar tuzish, bir-biriga aytishi, hatto o'qituvchiga ham topishmoqlar berib fanga bo'lgan qiziqishi ortadi va erkin ijod qilishga zamin yaratadi.

Geografiya darsida qo'llanadigan o'yinlardan biri «To'g'ri top» o'yini bo'lib, bu o'yin juda ham qiziqarli. O'quvchilar charchaganda ruhiy toliqishni oladi. Bu o'yinning texnologiyasi juda ham qiziqarli bo'lib, bunda o'qituvchi dars mavzusiga mos ravishda o'quvchilarga 15-20 ta tasviriy rasm yoki chizma tarqatadi. Deylik, biz 5-sinf tabiiy geografiyasida bulutlar mavzusini o'tishimizda bu o'yindan foydalanib o'tsak, dars juda ham qiziqarli bo'ladi. Bunda o'quvchilarga bulutlarni

rasmini yoki chizmasini tarqatamiz. O'quvchilar 10 daqiqa davomida rasmni izohlab, yozma javob beradilar. Bu o'yinni olib borish jarayonida hamma o'quvchilar faqatgina o'zlari bilgan narsalarni kitob, daftarlaridan foydalanmay, chizma yoki rasmlarga izoh beradilar. O'yin belgilangan vaqtdan so'ng yakunlanib, o'yin natijasi e'lon qilinadi. Kimning javobi puxta va aniq bo'lsa, u g'olib bo'ladi.

Geografik o'yinlarni VI sinf Materiklar va okeanlar geografiyasi kursini o'qitishda ham geografik o'yinlardan foydalanib o'tish dars samaradorligini oshiradi, o'quvchilarni bilim saviyasini, fanga bo'lgan e'tiborini, geografiyani bu kursini bilimlarni puxta egallashda katta ahamiyatga ega. VI sinf Materiklar va okeanlar geografiyasini o'rganish kursida ko'proq sayru-sayohat shaklidagi o'yinlardan foydalanib dars o'tsak, mavzularga mos keladi.

5-sinf "Tabiiy geografiya boshlang'ich kursi"dan olgan bilim, ko'nikma va malakalarini mustahkamlash maqsadida 6-sinf o'quvchilarining "Geografiya" va "Eratosfen" jamoalari 5ta shart bo'yicha bellashadilar. Har bir shartda 5 tadan topshiriq mavjud bo'lib, jamoalardan bir nafardan ishtirokchi qatnashadi.

Marhamat, shartlarimiz bilan tanishing:

1.Oz-oz o'rganib, dono bo'lur, qatra-qatra yig'ilib, daryo bo'lur. Mazkur shartda boshlovchi tomonidan aytilgan quyidagi 5 ta geografik atama va nomlar chiroyli va to'g'ri yozilishi kerak. (Subantarktika, aysberg, Puerto-Riko, amplitida, stratosfera).

2.Qo'ling bilan qilar ishni aqling bilan o'yla. Ishtirokchilar Yer yuzidagi eng katta orol, eng sersuv daryo, eng katta ko'l, eng chuqur cho'kma, eng chuqur ko'lni 6-sinf "Materiklar va okeanlar" yozuvi xaritasiga tushiradilar.

Eng katta orol - Grenlandiya


Eng sersuv daryo - Amazonka

Eng katta ko'l - Kaspiy

Eng chuqur cho'kma - Mariana

Eng chuqur ko'l - Baykal

3. Topgan topaloq. Mazkur shartda ishtirokchilar ob-havo hodisalarining shartli belgilaridan 5 tasini topadilar.



4. Raqamlar tilga kirganda...

Bu shartimizda o'quvchilar azimut tomonlarini topadilar. Namuna:

215° – janubi-g'arb

135° – janubi-sharq

290° – shimoli-g'arb

60° – shimoli-sharq

180° – janub

5. O'yla, izla, top. Mazkur shartda "Geografiya" jamoasi dunyodagi 5 ta dengizning, "Eratosfen" jamoasi esa 5ta daryoning nomini sanab berishlari kerak.

Namuna: Dengizlar - Qizil, O'rta, Boltiq, Barents, Arabiston, Qora.

Daryolar - Nil, Amudaryo, Sirdaryo, Xuanxe, Yanszi, Ob.

Geografiyaning bu kursida biror-bir materikni to'liq o'tib bo'lgach, yoki biron mavzuni o'tib bo'lgach, darslikdagi qismni yoki mavzuni qanchalik o'zlashtirganligini bilish uchun «Xayoliy sayohat» o'yinidan foydalanib dars o'tiladi. Dars qiziqarli va samaradorli bo'ladi deylik. Biz bugungi geografiya darsimizda o'tilgan mavzularni takrorlash darsi bo'lib, biz Afrika materigi qismini o'tib tugatdik. O'tilgan mavzular yuzasidan «Xayoliy sayohat» o'yinini o'ynaymiz.

Bunda hamma o'zi xohlagan Afrikaning istalgan joyiga xayoliy sayohat qilib, o'zi mustaqil ravishda o'sha joyni yozma darsda yozib tasvirlashi kerak bo'ladi. Masalan, kimdir Afrika oroliga yoki ichki suvlariga, tog'lariga, hamma o'zi xohlagan joyiga sayohat qilishi mumkin. Xulosa, kimning yozma tasvirlashi mazmunan yuqori saviyada yozilgan bo'lsa, u g'olib hisoblanadi. Shu tariqa darslarni o'tsak, bolalar darslarni qanchalik o'zlashtirganligi hamda Afrika materigining qaysi qismlarini yaxshi tushungan yoki tushunmaganligini bilib olamiz. Bu kabi o'yinlar bolalarni qolgan darslarga bo'lgan e'tiborini, har bir mavzuni chuqur o'zlashtirishga undaydi.

Bundan tashqari «Tovush chiqarmasdan topish» o'yini deylik, biz materiklar geografiyasi fanidan Yevroosiyoning ichki suvlari mavzusini o'tyapmiz deylik. Bunda tovush chiqarmasdan topish o'yinidan foydalanishimiz mumkin. O'yinni boshlashdan avval o'quvchilarga o'yin qoidalari tushuntiriladi, o'yinga faol qatnashgan va shartlarni oldindan bajargan o'quvchilarga baho qo'yiladi.

O'yin mazmunini o'qituvchi Yevroosiyo materigidagi daryolarni, ko'llarni, ulardan qaysi dengizga quyiladi, shu kabi geografik ob'yektlarni kartadan topishini aytadi. O'quvchilar shu ob'yektlarni geografik karta va atlasdan qidiradi. O'yinning borishi: ob'yektni topgach, o'quvchi o'ng qo'lini ko'taradi, o'qituvchiga o'zi topgan ob'yektni ko'rsatadi, o'quvchi qo'li bilan ob'yektni ushlab turmasligi kerak chunki yonidagi bola undan ko'rib olishi va foydalanishi mumkin. Shuning uchun ob'yektni topgan o'quvchi joyini aniq bilishi kerak. O'qituvchi qo'lini ko'targan o'quvchi oldiga borishi va tekshirishi kerak. Bu o'yinda «mer topdim, men topdim» deb tovush chiqargan o'quvchilarning topgani hisobga olinmaydi, bu haqda bolalar ogohlantirib qo'yiladi. Topgan o'quvchi uni geografik xarita yoki atlasdan ko'rsatishi kerak. Boshqa o'quvchilar qanchalik bilib olganliklarini sinash uchun ulardan ham ob'yekt so'raladi. Ob'yektni topgan o'quvchi o'tirgandan so'ng o'qituvchi yangi ob'yekt nomini aytadi. Shu tariqa o'yinlarni darsda qo'llash bolalarni xaritaga bo'lgan qiziqishini, xaritada har bir ob'yektlarni sinchkovlik bilan o'rganishni, ko'rgan narsasini xotirasida saqlab qolishni o'rgatadi.

Kartadan topish o'yini asosidarsni tashkil qilsak, darsda o'quvchilar faol qatnashadi, shu bilan o'sha joy haqida faqatgina ma'lumot olibgina qolmay, balki o'sha joy yer yuzining qaysi qismida joylashganligi haqida ham bilim, tasavvurlarga ega bo'ladi. Geografiya darsida Yevroosiyoning orollari haqidagi mavzuni o'tamiz. Bugun darsni o'yin shaklida o'tamiz, ya'ni «Kartadan topish» o'yinini o'ynaymiz. Qani kim aytadi, Yevroosiyodagi eng katta orol qaysi orol va u qayerda joylashgan? Yoki Shimoldagi orollar qaysi orollar, ya'ni Shpisbergen oroli materikning qaysi qismida joylashgan? Shu kabi savollarga o'quvchilar xarita va atlaslardan qidirib, orollarni, ularning geografik o'rnini topadilar. Shunda o'quvchilar bu o'yinni bir necha bor o'ynaganlaridan so'ng, tez topadigan bo'ladilar, bu o'yinni umuman geografik ob'yektlarni o'rganishda eng yaxshi va samarali o'yin hisoblanadi. Bunday o'yinlar asosida tashkil etilgan darslar bolalarda xotirada saqlab qolish imkonini beradi.

Bundan tashqari bu o'quv kursida pochta o'yinini qo'llab dars o'tsak ham dars juda qiziqarli bo'ladi. Bu o'yinni quyidagicha tashkil qilamiz, bunda deylik, 6 ta konvertni olibustiga «Afrika», «Antarktida», «Avstraliya», «Janubiy Amerika», «Shimoliy Amerika», «Yevroosiyo» deb yozaylik. Endi shu materiklardagi daryo, ko'l, sharshara, shahar, davlat, tog', tekislik nomlari yozilgan qog'ozchalarni o'quvchilarga tarqatiladi. Bunda qaysi nom, qaysi materikka to'g'ri kelsa, o'quvchi uni o'sha konvertga soladi. Shunday qilib, bu o'yinda kim ko'p va aniq javob topsa o'sha yuqori ball oladi. Bunday o'yinlarni darsga qo'llash juda ham samarali materialni beradi.

VII sinf. Musobaqa tarzidagi o'yinlarni ko'proq qo'llasak, darsni musobaqa shaklida tashkil etsak, o'quvchilarni yosh xususiyatiga, bilim darajasiga ancha yuqori ijobiy ta'sir ko'rsatadi. Musobaqa tarzidagi bunday o'yinlar xilma-xil bo'lib, bularni dars mavzusiga qarab darsda qo'llasa anchagina maqsadga molik bo'ladi. Bulardan biri «Kim ko'p yozadi?» o'yini. Bunda o'quvchilar oldiga faqat qog'oz va qalam bo'lishi kerak. Darsimiz O'zbekiston ko'llari yoki suv omborlari deylik. Bunda o'quvchi belgilangan vaqt ichida o'zlari bilan ko'llarni nomlarini yozib

chiqishlari kerak. O'quvchilar yozgan ko'llari nomlarini o'qiydi va kim ko'p ko'llarni nomini yozgan bo'lsa, ya'ni belgilangan vaqt ichida o'sha o'quvchi g'olib bo'ladi. Bir to'g'ri javobga bir ball beriladi.

Bundan tashqari qiziqarli chaynvordlardan yoki krossvordlardan foydalansak, dars mazmuni ancha keng yoritiladi va o'quvchi xotirasida ko'proq saqlanib qoladi.

Bunda bo'yiga quyidagi so'zlar yoziladi:

	1	K	O'	K	Q	A	R	G'	A	
	2	CH	U	G'	U	R	CH	I	Q	
3	Q	O	R	A	SH	A	Q	SH	A	Q
		4	B	U	L	D	U	R	U	Q
5	Q	O	R	A	Y	A	L	O	Q	
	6	Q	I	R	G'	O	V	U	L	

Bo'sh xonalarni
to'ldirsangiz
Respublikamizda qanday
qushlarni uchratish
mumkinligini bilib olasiz.

1. Afrikada qishlab O'zbekistonda aprel va may oylarida uchib keluvchi foydali qush.
2. Hindiston, Old Osiyoda qishlab, mart oxirida respublikamizga keluvchi qush.
3. Tog' etaklarida yashovchi foydali qush.
4. Saksovlzorlarda yashovchi qush.
5. Sentabr, oktabr oylarida O'zbekistondan uchib ketuvchi qush.

VIII sinf. O'zbekiston ijtimoiy-iqtisodiy geografiya kursida biz ko'proq guruhlar bilan ishlab, ochiq dars, erkin fikr darslarini tashkil qilsak maqsadga muvofiq bo'ladi. VIII sinf geografiyasida viloyatlar yoki iqtisodiy rayonlar mavzusini o'tguncha guruhli o'yinlardan foydalanish juda ham qiziqarli va samarali bo'ladi.

Deylik, mavzu: Sirdaryo viloyati. Bunda o'quvchilar guruhlariga bo'linib, har bir guruh viloyatning qismlarga bo'lib o'rganadi. Sinf o'quvchilarini guruhlashda ularni soniga qarab, tartib raqamiga qarab kichik guruhlariga ajratiladi:

1-guruh Sirdaryoni geografik o'rnini o'rgansa,

2-guruh viloyat aholisini,

3-guruh qishloq xo'jaligini,

4-guruh sanoatini,

5-guruh transportini,

6-guruh shaharlarini, shu tariqa guruhlar viloyat qismlarini o'rganib, o'qituvchi savollarga javob beradi. Bu kabi o'yinlar o'quvchilarni har bir ishni rejali tashkil qilishga, erkin fikrlashga o'rgatadi. Bu kabi o'yinlar orqali dars o'tilsa, hamma o'quvchilar faol qatnashadi.

IX sinf. Jahon iqtisodiy-ijtimoiy geografiyasi kursida munozarali o'yinlarni, muammoli savol-javob o'yinlarini qo'llab dars o'tishimiz maqsadli, samarali bo'ladi. Umuman olganda bu kursni o'qitishda munozarali o'yinni qo'llaymiz.

Deylik, darsimiz atrof-muhitning ifloslanishi yoki jahon aholisi soni va ko'payishi. Bunda munozara mavzusi aniq bo'lishi kerak. Tanlangan qismlarga ajratilib, 15-20 ta qisqa savollar o'quvchilarga berilib, sinf o'quvchilari 3-4 kishidan guruhlanib savollarga javob muhokama etiladi va munozara boshlanadi. Mavzu yuzasidan savollar quyidagicha bo'lishi mumkin:

1. Atrof-muhitning ifloslanishida tabiiy omillar.
2. Atrof-muhitning ifloslanishida sun'iy omillar.
3. Atrof-muhitning ifloslanishini zararli oqibatlari.
4. Atrof-muhitning ifloslanishida atmosfera.
5. Atrof-muhitning ifloslanishida gidrosfera.
6. Atrof-muhitning ifloslanishida ekologik siyosat.
7. Atrof-muhitning ifloslanishida eng ko'p xizmat qiluvchi omil.
8. Atrof-muhitning ifloslanishini oldini oluvchi ishlar.

Shu kabi savollarga o'quvchilar munozarada har bir guruh a'zosi o'z fikrini bayon etish huquqiga ega. Shu tariqa o'yin boshlanib, o'yinda boshlovchi va 3 kishidan iborat ekspert guruhi barcha guruh javoblarini tahlil qilib, eng maqbul javob variantlarini aniqlaydi, muammoni hal qilishning optimal variantini aniqlab,

munozaraga yakun yasaydi. Qaysi guruh munozarali javobni bergan bo'lsa, o'sha guruh g'olib bo'ladi. Bu kabi o'yinlar ta'lim-tarbiya tizimini tubdan isloh qilish, ta'lim sifati samaradorligini oshirish, o'quvchilarni bilim doirasini kengaytirish, darsda faolliklarini va fanga qiziqishlarini yanada oshirishga yordam beradi. O'quvchilarni har bir ishni qilishda har taraflama oldi-orqa, yaxshi-yomon tomonlarini, bugunni va ertani o'ylab, hamda kelajakni ko'ra olish qobiliyatini ta'minlaydi.

2.2. Sinfdan tashqari ishlarda o'yinlardan foydalanish

Mamlakatimiz ta'lim tizimidagi asosiy vazifa barkamol avlodni shakllantirish, ularni Vatanning mard va yetuk farzandlari etib tarbiyalashdan iborat. Barkamol avlodni shakllantirish uchun maktabda o'quv-tarbiya ishlarining barcha shakl va usullarini kun sayin takomillashtira borib, undan ustalik bilan foydalanish talab etiladi. Barcha fanlarda bo'lganidek, geografiyadan sinfdan tashqari ishlarni tashkil etish va o'tkazish uni yuqori pog'onaga ko'tarish, o'quvchilarda shu fanni o'rganishga bo'lgan havaslarini orttirish lozim.

Bugungi kunga kelib geografiyani takomillashtirishga yanada katta e'tibor bilan qaralmoqda. Buning uchun geografiya o'qituvchisi avvalo o'zi o'qitayotgan fanni sevishi va bu fan erishayotgan yutuqlar bilan uzluksiz tanishib borishi shart. Geografiya darslarini va geografiyadan sinfdan tashqari ishlarni hayotga tadbqiq etish, ularni qiziqarli va ijodiy tashkil etish – bosh maqsaddir.

Geografiyada sinfdan tashqari ishlarni tashkil qilishda, geografik o'yinlar muhim ahamiyatga ega. Geografik kechalarda, geografik maydonchada, geografik o'lkashunoslikda geografik o'yinlar juda ham asosiy o'rin tutib, o'quvchilarni geografiyaga bo'lgan havasini, mehrini, tabiatga bo'lgan munosabatini tarbiyalaydi.

Sinfdan tashqari ishlarni rejalashtirishda quyidagi ish namunalariga amal qilish maqsadga muvofiq bo'ladi:

1. Geografiya to'garagini tashkil etish.
2. Geografik kechalar o'tkazish.
3. Turli ob'yektlarga ekskursiyalar uyushtirish.
4. Geografiya burchagini tashkil etish.
5. Turli mazmundagi geografik ko'rgazmalar tayyorlash.
6. Gazeta va jurnallar chiqarish.
7. Geografiya maydonchasida ishlash.
8. Olimpiada va turli ko'rik tanlovlarga tayyorgarlik ko'rish va o'tkazish.

Sinfdan tashqari ishlarning eng qiyin, eng sermazmun, shu bilan birga eng ommaviysi geografiya kechalaridir. U sinfdan tashqari deyarli barcha ishlarni o'zida mujassamlashtirib, to'garakning barcha bo'limlari faoliyatini yakunlaydi. Geografik kechalar shakli va mazmuniga ko'ra turlicha bo'lib, u kurslarda o'zlashtirilgan bilimlar yuzasidan biror xalqaro anjumanlarga, Vatan geografiyasiga, buyuk geograflar xotirasiga, iqtisodiy rayon yoki tabiiy o'lkaga hatto tabiatga, biror shaharga, ishlab chiqarish korxonalariga, qishloq xo'jaligiga, uyushtirilgan sayohat natijasiga bag'ishlanishi mumkin.

Kecha uchun mavzu tanlash muhim ahamiyatga ega. Bunda mavzuning g'oyaviy va mafkuraviy hamda ta'lim-tarbiyaviy jihatdan ko'proq samara berishiga, mavzuga doir adabiyot va jihozlarning topilishiga ham ahamiyat berish kerak. Mavzu aniqlangach, kechaning turi, dasturi va o'tkazish vaqti belgilanadi. Kechaning ahamiyati va ta'siri unda ishtirok etuvchi o'quvchilarning soni va faolligiga bog'liq. Kechada qilinadigan ma'ruzalar matni, badiiy qismi, she'r va ashulalar, o'yinlarni tanlash eng mas'uliyatli ishlardan hisoblanadi. Shunday bo'lsada, uni aslo o'qituvchining o'zi tayyorlab bermasligi kerak. Bularni o'quvchilarning o'zlari topishlari, hatto she'rlarni ijod qilishlari maqsadga muvofiqdir.

Mustaqil Mamlakatimiz xalqlari o'zlarining buyuk bobokalonlari, ularning qoldirgan boy ma'naviy merosi milliy mafkura asoslariga poydevor, bebaho sarchashma ekanligini dunyoda namoyon etmoqda. Buyuk bobokalonlarimiz hayoti va ilmiy faoliyatiga bag'ishlangan kechalar, seminar konferensiya va boshqa tadbirlarni o'tkazilishi yosh avlodni o'tmishimiz bilan faxrlanish, milliy iftixor tuyg'usini yanada ravnaq toptirishga xizmat qiladi.

Bunda biz geografik o'yinlardan foydalanib, bahsni musobaqa o'yinlar asosida, ya'ni «Tezkor savollarga tezkor javoblar» o'yinidan foydalanamiz. O'yin texnologiyasi quyidagicha: har ikkala guruhga 10 tadan savollar beriladi. Savollar ham tezkorlik bilan beriladi, javoblar ham tezkorlikda beriladi, ya'ni bu o'yinning nomi bilan sharti bir xil.

1-guruhga savollar:

1. Geografiya bu yer emas, bu nima ?
2. Mirzo Ulug'bek bu shoir emas, bu kim ?
3. Meridian tush chizig'i emas, bu nima ?
4. «Ziji Ko'ragoniy»ni Ibn Sino yozmagan, kim yozgan ?
5. Globus bu yer emas, bu nima ?
6. Kompas bu o'simlik emas, bu nima ?
7. Ekvator bu dengiz emas, bu nima ?
8. Ptolemey bu matematik emas, bu kim ?
9. Atmosfera bu asbob emas, bu nima ?
10. Briz bu shahar emas, bu nima ?

2-guruhga savollar:

1. Atlantika bu daryo emas, bu nima ?
2. Materik bu davlat emas, bu nima ?
3. Tundra bu hayvon emas, bu nima ?
4. Tog' bu tekislik emas, bu nima ?
5. Aysberg bu vulkan emas, bu nima ?


6. Yevropa bu shahar emas, bu nima ?
7. Viktoriya bu ko'l emas, bu nima ?
8. Okean bu balandlik emas, bu nima ?
9. Jungli bu xalq emas, bu nima ?
10. Avstraliya bu materik emas, bu nima ?

Har ikkala guruh aʼzolari savollarga qanchalik tez va aniq javob berganligiga qarab, hakamlar hayʼati shart bo'yicha ballarni hosil qiladi. 2-shartda «Kim ko'p biladi» bahsi bo'yicha guruhlar bellashadi, bu shartni tashkil qilishda ham geografik o'yinlardan foydalansak, bahs juda ham samarali va qiziqarli bo'ladi.

Bu shartda ikkala guruh oldiga yozuvsiz karta qo'yilib, «O'zbekiston shaharlarini o'rganish» o'yini asosida yozuvsiz karta shaharlarni nomi o'rniga raqamlar berilib, shaharni raqamlar asosida o'rganadi. Bu o'yin faqatgina mamlakatimiz shaharlarini emas, jahon shaharlarini o'rganishda ham yaxshi samara beradi. Bu shartdan ko'plab o'yinlarda ham foydalanish mumkin. Bu shartda qaysi guruh tez va ko'p raqamlarni ketma-ket joylashtirib chiqsa o'sha g'olib bo'ladi. Guruhga ballar qo'yiladi.

3-shart boshqotirma sharti bo'lib, bu shartda har ikkala guruhga geografik krossvordlar yoki chaynvordlar geografik ob'yektlar haqida beriladi.


1-guruh aʼzolariga «*Afrikaning daryolari, tog'lari*» krossvordi –



Eniga: 1. Afrikaning Shimoliy qismidagi tog'. 4. Eng katta daryo.
5. Gvineya qo'ltig'iga quyiluvchi daryo. 6. Afrikadagi eng yirik shahar.
7. Dunyodagi eng uzun daryo. 8. Afrikaning janubidagi tog'.

Bo'yiga: 1. Nil daryosiga qurilgan to'g'on. 2. Atlantika okeaniga quyiluvchi daryo. 3. Afrikaning Janubi-sharqidagi tog'. 4. 5199 m balandlikdagi cho'qqi.

2-guruh a'zolariga «*Yevroosiyoning daryolari va ko'llari*» krossvordi –



Bo'yiga: 1. Tibet tog'laridan boshlanuvchi daryo. 2. Alp tog'laridan boshlanib, O'rta dengizga quyiladigan daryo. 3. Yevroosiyoning kattaligi bo'yicha 2-o'rinda turuvchi ko'l. 4. Bengaliya qo'ltig'iga quyiladigan daryo. 5. Takla-makon cho'lini kesib o'tuvchi daryo.

Eniga: 2. Alp tog'laridan boshlanib, dengizga quyiladigan daryo. 6. Yevroosiyoning Shimoli-g'arbidagi chuchuk suvli ko'l. 7. 9. Amur daryosining irmoqlari. 10. Yevroosiyoning Sharqidagi sersuv daryo. 11. Yevroosiyoning Janubi-Sharqidagi Janubi Xitoy dengiziga quyiladigan daryo.

Bu shartda har ikkala guruh krossvordlarni belgilangan vaqt ichida yechib bo'lishi kerak. Belgilangan vaqt tugagach hakamlar krossvordlarni to'g'ri yoki noto'g'riligini tekshirib, guruhlarga yana ballarni in'om etadilar.

Boshlovchi bahsning 4-sharti Sardorlar bahsini e'lon qiladi. Sardorlar bahsi uchun «Eng» izohlang o'yini o'ynaladi, bunda sardorlar eng ko'rsatkichiga ega bo'lgan geografik nomlarni yozib, 3 daqiqa ichida tugatadilar.

1-guruh: 1. Yevroosiyo. 2. Tinch. 3. Ximolay. 4. Jomolungma. 5. Mariana. 6. Nil. 7. Amazonka. 8. Baykal. 9. Anxel. 10. O'lik dengiz.

Vaqt o'tgach yozilgan nomlarni og'zaki izohlaydilar:

1. Yevroosiyo – Yer sharidagi eng katta materik.
2. Tinch – eng katta okean.
3. Ximolay – eng baland tog'.
4. Jomolungma – eng baland cho'qqi.
5. Mariana – eng chuqur botiq.
6. Nil – eng uzun daryo.
7. Amazonka – eng sersuv daryo.
8. Baykal – eng chuqur ko'l.
9. Anxel – eng baland sharshara.
10. O'lik dengiz – eng past botiq.

2-guruh sardori: 1. Grenlandiya. 2. Sahroi Kabir. 3. Tripoli. 4. Vostok. 5. Atakama. 6. Pantanal. 7. Saragosa. 8. Amazonka. 9. Nil. 10. Baykal. 11. Yevroosiyo. 12. Tinch. 13. Kasbiy. Shunday qilib 2-guruh sardori ham o'zi yozgan nomlarni izohini beradi:

1. Grenlandiya – eng katta orol.
2. Sahroi Kabir – eng katta cho'l.
3. Tripoli – eng jazirama joy.
4. Vostok – eng sovuq joy.
5. Atakama – eng quruq joy.
6. Pantanal – eng yirik botqoqlik.

7. Saragosa – eng yirik dengiz.
8. Amazonka – eng yirik tekislik.
9. Nil – eng uzun daryo.
10. Baykal – eng chuchuk suv.
11. Yevroosiyo – eng katta materik.
12. Tinch – eng katta okean.
13. Kasbiy – eng katta ko'l.

Sardorlar bahsi ham baholangach, bahs davomida guruhlarining to'plagan ballari umumlashtiriladi va g'olib guruh e'lon qilinadi. G'olib guruh faol ishtirokchilari maktab ma'muriyati, homiylar tomonidan rag'batlantiriladi.

Shu tarzda tashkil etilgan kechalar geografiya faniga o'quvchilarda 5-sinf boshlang'ich tabiiy geografiya kursidan boshlanib qiziqish uyg'otadi. Mustaqil kitob o'qishga, xarita bilan ishlashga, fikrlashga va bilim olishga undaydi.

VII-VIII sinflarda ham geografiyani o'rganishga doir kechalar o'tkazish katta ahamiyatga ega.

VII-VIII sinflarda «O'rta Osiyo tabiiy geografiyasi «O'zbekistonning iqtisodiy va ijtimoiy geografiyasi» kurslarining yakuniga bag'ishlab katta dastur asosida kecha o'tkazish maqsadga muvofiqdir.

Kechani «O'zbekiston maftunkor o'lka» yoki «O'zbekiston kelajagi buyuk davlat» mavzularida o'tkazish mumkin. Bunday darsdan tashqari ishlarda, ya'ni geografik kechalarda bahs uchun «Tumanlarni bilasizmi?» o'yini, «Iqtisodiy rayonlarni bilasizmi?» viktorina savollari o'yinlaridan foydalansak, kechalar juda ham samarali bo'lib o'tadi.

Sinfdan tashqari ishlarni geografik maydonchalarda ham tashkil qilsa bo'ladi. Bundan tashqari turli geografik ob'yektlarga ekskursiyalar uyushtirish, maktab o'lkashunosligi, o'z o'lkasining tabiati, ijtimoiy hayoti, xo'jaligi va madaniyatini o'rganishni vazifa qilib qo'yiladi. Bunda o'z joyi, ya'ni o'z qishlog'i, o'z tumani, o'z shahri, o'z viloyati tushuniladi.

Maktab o'quvchilarining yoshi ulg'aygan sari o'z joyi tushunchasi ham ularda keng ma'no kasb etadi. Shuning uchun ham sinfdan tashqari ishlarni tashkil etish, sinf mashg'ulotlarida bo'lganidek, o'quvchilarning yosh va bilim darajasiga qarab turlisa bo'ladi. V-VII sinf o'quvchilari o'z joyining tabiatini maktab atrofini o'rganishdan boshlasak, yuqori sinfda o'quvchilar bilimining nisbatan yuksakligi hamda iqtisodiy geografik hodisalarning keng qamrovliligidan o'z joyini, o'z viloyatini yaxlit deb o'rganishdan boshlash maqsadga muvofiq bo'ladi. Umuman, sinfdan tashqari ishlar o'quvchilar bilimini mustahkamlaydi, ularni Vatanga, mehnatga, xalqiga bo'lgan muhabbatini oshiradi. Sinfdan tashqari ishlar namunali tashkil etilsa, geografiya to'garagi, kechalar puxta tayyorgarlik bilan o'quvchilarning faol ishtirokida o'tkazilsa, o'quv-tarbiya ishida o'quvchilarga nazariy va amaliy ishlarga oid bilim va ko'nikma, malakalar vujudga keltiradi. Ularda uzoq vaqtgacha esdan chiqmaydigan chuqur taasurol qoldiradi.

Geografiya fani o'zining qiziqarliligi bilan ajralib turadi. Ana shu qiziqarlilik ayniqsa, geografiya kechalarida o'z ifodasini topadi. Darsdagi bilimlarni yanada mustahkamlash, boyitishda sinfdan tashqari ishlarni yo'lga qo'yish eng muhim vazifalardan biridir. Geografik o'yinlardan sinfdan tashqari ishlarda foydalanish ham katta ahamiyatga ega. Biz qanday qilib geografik o'yinlardan sinfdan tashqari ishlarda foydalanamiz degan savolga javob beradigan bo'lsak, eng avvalo to'garaklarni nazarda tutamiz, ya'ni geografik to'garakni tashkil etish o'quvchilar uchun darsda qamrab olish imkoni bo'lmagan ishlarni bajarish, o'rgatish o'qituvchidan katta mas'uliyat talab qiladi.

Buning uchun to'garak a'zolari bilan birga uning tartib va qoidalari ishlab chiqiladi, bu tartib va qoidalarni to'garak yig'ini muhokamasidan o'tgandan keyin Nizom deb qabul qilinadi.

Nizomda quyidagi talablar bo'ladi:

1. Geografiya to'garagi - o'quvchilarning ixtiriy uyushmasi ekanligi.
2. To'garakka barcha fanlardan o'zlashtiruvchi va geografiyadan a'lo baholarda o'qiydigan o'quvchilar qabul qilinadi.

3. Yil davomida to'garakning har bir a'zosi kamida bitta ko'rgazmali qurol tayyorlab beradi.
4. To'garak mashg'uloti har haftada bir marta o'tkazilib, uzrsiz sabablar bilan mashg'ulotga 3 marta qatnashmagan har qanday a'zoning to'garakdan chiqariladi.
5. To'garakka a'zo bo'lganlar uchun ko'rsatilganlar majburiyligi va hokazo.

To'garakda qilinadigan ishlarning mavzularini belgilashda asosan, o'quvchilar istagi o'z aksini topishi kerak. Bunda o'qituvchi o'zining yetakchilik rolini yo'qotmasdan, sinfdan tashqari ishlarda o'lkashunoslikka oid ishlarning ko'proq o'rin egallashiga erishmog'i lozim.

To'garak o'z a'zolarining istak va imkoniyatlari doirasida ishlab chiqilgan yillik rejani albatta maktab ma'muriyati tasdig'idan o'tkazishi shart. Maktab o'lkashunosligi o'z o'lkasining tabiati, ijtimoiy hayoti, xo'jaligi va madaniyatini o'rganishni vazifa qilib qo'yadi. Bunda o'z joyi, ya'ni o'z qishlog'i, o'z tumani, o'z shahri, o'z viloyati tushuniladi.

Maktab o'quvchilarining yoshi ulg'aygan sari o'z joyi tushunchasi ham ularga keng ma'no kasb etadi. O'qituvchi o'quv yili boshida to'garak a'zolarining istaklarini hisobga olib, yuqoridagi ish turlari asosida qilinadigan ishlarning bir yillik rejasini ishlab chiqadi. To'garak faoliyatining kelgusida muvaffaqiyatli davom etishi ko'p jihatdan rejada belgilangan ishlarning o'z vaqtida muntazam bajarilib borishiga bog'liqdir. U yoki bu sabablarga ko'ra to'garak mashg'ulotining bo'lmay qolishi to'garakning ishiga salbiy ta'sir etadi. Bundan tashqari to'garak mashg'ulotlarining doimo bir xil o'tkazilishiga aslo yo'l qo'ymaslik kerak. Aks holda, to'garak a'zolarining qiziqishi yo'qoladi.

Ma'lumki, 5-sinfda geografiya faniga haftasiga bor yo'g'i bir soat ajratilgan xolos. Lekin «Boshlang'ich geografiya kursi» geografiyaning asosiy va yuqori sinflardagi bilimlari uchun zamin hisoblanadi. Shu bois geografiyani chuqur o'rganish avvalo, tabiiy hodisalarni ilmiy tushunish, tushuntira olish, baholash ko'nikmalarining shakllantirilishiga bog'liq.

Buning uchun nafaqat dars paytidan, balki sinfdan va maktabdan tashqari vaqtdan ham foydalanish kerak. Darsdan tashqari olib boriladigan samarali faoliyatlardan biri bu tug'arak ishidir. Lekin, to'garakni darsga o'xshatib o'tish yoki mavzuni yana qayta tushuntirish o'quvchini zeriktiradi va to'garakdan sovutadi.

To'garak mashg'uloti amaliyot tarzida o'tkazilishi, o'quvchilar o'zlari ishlashlari, xatolarini o'zlari topishlari, o'zlari o'zlarini baholash va bu faoliyat ularga huzur bag'ishlashi kerak. Shundagina o'quvchilar to'garakka faol qatnashadilar. Quyida 5-sinflar uchun mashg'ulotlarning ayrimlarini keltiramiz:

1-mashg'ulot

Ob-havoni kuzatamiz.

Bu mashg'ulotga o'quvchilar termometr olib keladilar. Mashg'ulotning yarmi sinfda, yarmi maktab hovlisida o'tkaziladi. Sinfda daftarga jadvallar chiziladi, ob-havo hodisalarini shartli belgilari tushuntiriladi.

Maktab hovlisida o'quvchilarni 3-4 guruhga ajratib, 10 daqiqa davomida ob-havoni kuzatib, ma'lumotlarni yozish topshiriladi. O'qituvchi ham ob-havoni kuzatib ma'lumotlarni qayd etadi. Sinfxonaga qaytgach har bir guruh o'z ma'lumotlarini doskaga yopishtirib, ma'lumotlar to'ldirilib daftarga qayd etiladi. O'quvchilarning daftarlari nazorat qilinadi va har kuni shu tarzda ob-havoni kuzatish daftariga qayd etib borish vazifasi beriladi.

2-mashg'ulot.

Tabiiy hodisalar va siyosiy voqealar nima?

Bu mashg'ulotdan bir hafta avval o'quvchilarga oynaijahon, radio va axborot vositalari orqali berilgan yangiliklardan ma'lumot to'plab kelish vazifasi beriladi. Doskani ikki qismga ajratib, «Siyosiy va tabiiy hodisalar» deb yozib qo'yiladi. Har bir o'quvchini eshitib keltirilgan ma'lumotlar doskaga yopishtirib boriladi. Ma'lumotlarning tabiiy yoki siyosiy turlari aniqlangach, ularni aniq va qisqa yozish tartibi o'rgatiladi. Ya'ni, qachon qayerda qanday horisa.

Namuna: 13.12.2006. Soat 12.00 da Toshkentda zilzila kuzatildi.

15.11.2006. Florida orollarida suv toshqini kuzatildi, talofatlar bor.

Mashg'ulot so'ngida har kim siyosiy va tabiiy voqea hodisalarni maxsus daftariga qayd etib borishi vazifasi beriladi.

Geografiya darslarida navbatchi o'quvchilardan bu yangiliklar eshitib, baholanib boriladi.

3-mashg'ulot

Sayyohlar davrasida.

Bu mashg'ulotni o'tish uchun bir hafta ilgari sayyohlar ro'yxati beriladi. Masalan: F.Magellan, X.Kalulev, Vasko da Gama, Skot Amundsen, Vilyam, Yanson, Lazerov, Bellingauzen, Beruniy, Bobur, Ibn Sino, Mahmud Qoshg'ariy va hokazo. Adabiyotlar ro'yxati taqdim etiladi: Boburning «Boburnoma» asari, Beruniyning «Hindiston» asari, Ilyos Nizomiddinning «Sayyohlarning yozganlari», «Qadimgi o'zbek geograflari», X.Xasanov «O'rta Osiyolik geograflar» va hokazo.

Magellan, Kolumb sayohatlari haqida darsda geografik kashfiyotlar mavzusida ma'lumotlar beriladi. O'quvchilar xohlagan sayyohlaridan birini tanlab oladilar va shu sayyoh nomidan so'zga chiqadilar. Qolgan o'quvchilar ham sayyohlarni o'rganib savol tayyorlaydilar. Mashg'ulot kuni sayyohlar davra qurib o'tiradilar va navbatma-navbat o'z sayohatlari haqida xaritadan ko'rsatib, so'zlab beradilar. O'quvchilar savollar berishadi.

XULOSA

Mamlakatimiz mustaqillikka erishgandan so'ng qabul qilingan qonunlar ta'lim sohasini tubdan isloh qilishni, o'tmishdan qolgan mafkuraviy qarashlardan to'la xalos etishni taqozo etadi. Bizga ma'lumki, geografiya dunyodagi eng qadimgi va qiziqarli fanlardan biri hisoblanadi. «Geografiya» deb nomlangan eng dastlabki kitob bundan ikki ming yil ilgari yunon olimi Eratosfen tomonidan yozilgan. Darhaqiqat, geografiyaga qiziqmagan, o'zining kundalik hayotiy faoliyatida geografiyaga duch kelmagan insonni uchratish qiyin. Bugungi kun geografiyasi yangiliklarni o'quvchilarga yetkazish uchun o'qituvchilardan o'z ustida muntazam ishlashni talab qiladi.

Geografiya darslarini hayotga bog'lab, qiziqarli qilib tashkil etilsa ana shundagina dars mavzulari har bir saboq oluvchilar ongiga chuqurroq singadi. Yosh avlodni har tomonlama barkamol, mustaqil fikrli, ilimli, ma'naviy yetuk, Vatanimizning yanada gullab, yashnashi uchun o'z bilim va kuchini ayamaydigan qilib tarbiyalash biz o'qituvchilarga katta mas'uliyat yuklaydi.

Bugungi kun talabi darslarni Yangi pedagogik texnologiyalardan foydalanib, noan'anaviy interfaol usullar yordamida tashkil etishdir. Bitiruv malakaviy ishimda geografik o'yinlarning mazmun va mohiyatini ochib berilishida, shuningdek, darslarda geografik o'yinlarni qo'llab chiqishga harakat qilindi.

Shuningdek, bitiruv malakaviy ishimning mazmunini ochishda sinfdan tashqari ishlarda geografik o'yinlardan foydalanishning tadbir ishlanmasi ko'rsatildi. Bitiruv malakaviy ishimda bajarilgan maqsad va vazifalardan kelib chiqqan holda quyidagi ishlar amalgam oshirildi:

1. Geografiya darslarida geografik o'yinlardan foydalanish uslublarini aniqlanib, bu jarayonni geografiya darslarida qo'llash amalga oshirildi;
2. Geografik o'yin turlarini ishlab chiqildi va uni geografiya darslarida qo'llanilishini yoritilib berildi;
3. Geografiya darslarida geografik o'yinlarni qo'llashga doir tavsiyalar berildi;

4.Sinfdan tashqari ishlarda geografik o'yinlardan foydalanishga oid tadbir ishlanmalarini tayyorlandi hamda bu borada o'qituvchilar o'quvchilarni geografiya darslarini qiziqarli o'yinlar orqali amalga oshirilishi mumkin bo'lgan tavsiyalar berildi. Birituv malakaviy ishimda rejaga asoslangan holda yondoshildi. Mavzuning birinchi bobida geografiya darslarida geografik o'yinlardan foydalanishning maqsadi va vazifalari yoritilib, bunda geografik o'yinlardan foydalanish uslublari va o'yin turlari ishlab chiqildi. Ikkinchi bobda esa, dars va darsdan tashqari ishlarda geografik o'yinlardan foydalanish, hamda darsda geografik o'yinlarni qo'llash va sinfdan tashqari ishlarda bunday o'yinlardan oqilona foydalanishni Birituv malakaviy ishda keng ma'noda yoritilib berildi.

Mavzuda geografik o'yinlarni darsda va darsdan tashqari ishlarda geografik o'yinlardan foydalanishni afzalliklari keltirib o'tilib, bu borada qilingan ishlar amalga oshirilishini tavsiya etildi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

- 1.Karimov I. O'zbekiston XXI asr bo'sag'asida: xavfsizlikka tahdid, barqarorlik shartlari va taraqqiyot kafolatlari. – T.: O'zbekiston, 1997.-326b.
- 2.Karimov I.A. Barkamol avlod orzus. T.: Sharq, 1999.- 182 b.
- 3.Karimov I. Asosiy vazifamiz – vatanimiz taraqqiyoti va xalqimiz farovonligini yanada yuksaltirishdir. – T.: O'zbekiston, 2010.
- 4.Karimov I. O'zbekiston mustaqillikka erishish ostonasida. – T.: O'zbekiston, 2011.
- 5.Asanov G., Nabixonov M., Safarov I. O'zbekistonning iqtisodiy va ijtimoiy jo'g'rofiyasi. – T.: O'qituvchi, 1994.
- 6.Ahmedov E., Saydaminova Z. O'zbekiston Respublikasi. Qisqacha ma'lumotnoma. – T.: O'zbekiston, 2006.
- 7.Ibragimov X.I., Yo'ldoshev U.A., Bobomirzayev X. Pedagogik psixologiya. -T.: Ozbekiston faylasuflari milliy jamiyati, 2009. – B. 76-96 .
8. Kalonov B.H., Hayitov A.T., Erdonov L.N. O'zbekiston geografiyasini maktabda o'rganish.-Qarshi, Nasaf nashriyoti, 2004.-254b.
9. Kalonov B. H. Janubiy O'zbekistonda paxtachilik. – T.: Muloqot jurnali, 2005. B.15-16.
- 10.Kalonov B. H. Mamatov A. Ommobop geografiya.– T.: Zar qalam nashriyoti, 2006. - 160b.
- 11.Musayev R., Musayev J. O'zbekiston iqtisodiy va ijtimoiy geografiyasi. 8-sinf darsligi. -T.: Sharq, 2014. B.142-146.
- 12.Nabiyev E., Qayumov A. O'zbekistonning iqtisodiy salohiyati. – T.: Universitet, 2000.- 86 b.
- 13.Ro'ziyev A., Abirqulov Q. O'zbekiston iqtisodiy geografiyasi. – T.: Sharq, 2001.- 144 b.
- 14.Soliyev A.S., Ahmedov E., Maxamadaliyev R.Y. va b. Mintaqaviy iqtisodiyot. O'quv qo'llanma. – T.: Universitet, 2003.- 304 b.

- 15.Soliyev A., Nazarov M. O'zbekiston qishloqlari (Qishloq joylar geografiyasi). – T.: Fan va texnologiya, 2009.- 212 b.
- 16.Soliyev A., Nazarov M., Qurbonov Sh. O'zbekiston hududlari ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishi. – T.: Mumtoz so'z, 2010.- B.189-211.
- 17.Soliyev A. O'zbekiston geografiya jamiyati s'ezdan- s'ezgacha.-T.: O'zbekiston geografiya jamiyati IX- s'ezdi materiallari, 2014. – B.4-8.
- 18.Soliyev A. Iqtisodiy geografiya: nazariya, metodika va amaliyot.-T., 2013.- 226 b.
- 19.Tojiyeva Z.N. O'zbekiston aholisi: o'sishi va joylanishi (1989-2009 yy.). Monografiya. – T.: Fan va texnologiya, 2010.- 276 b.
- 20.To'xliyev N. O'zbekiston Respublikasi iqtisodiyoti. – T.: O'zbekiston Milliy ensiklopediyasi, 2008.
- 21.Hasanov I.A., G'ulomov P.N. O'zbekiston tabiiy geografiyasi.– T.: O'qituvchi, 2007.
- 22.Hayitov A.T.,Boymurodov N. Ta'limda hoan'anaviy darslar va interfaol usullrdan foydalanish. -T.: Yangi asr avlodi. 2006. - 76 b.
- 23.Fayzullayev M.A.Yer resurslaridan qishloq xo'jaligida foydalanishning mintaqaviy xususiyatlari (Janubiy O'zbekiston misolida). –T, O'zbekiston geografiya jamiyati axboroti.44-jild. B.23-25.
- 24.Qurbonov Sh.B. Kichik hududlar ijtimoiy-iqtisodiy geografiyasi.- T.: Mumtoz so'z, 2013.- 158 b.
- 25.8-sinf atlası.-T.: O'zbekiston Respublikasi yer resurslari,geodeziya, kartografiya va davlat kadastri qo'mitasi, 2014.-B.50.
- 27.Максаковский М.Р. Общая экономическая и социальная география. - М.: ВЛАДОС, 2009.- 356с.
28. Саушкин Ю.Г. Географическое мисление.– Смоленск.: Ойкумена, 2011.- 256с.
- 30.www.ilm.uz.- Mamlakat ta'lim tizimidagi ilmiy yangilik, ilmiy ishlar, tadqiqot ishlari ifodalangan.